

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC
ONLINE CONFERENCE**



Global Conference Hub

INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY SCIENCE CONFERENCE

ITALY

<http://globalconferencehub.org>



**INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY
SCIENCE CONFERENCE
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

**INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY SCIENCE
CONFERENCE:** a collection scientific works of the International scientific
conference (April, 2026) – Italy: 2026. Volume-01, Issue 04, 2026

Languages of publication: English, Russian, and Uzbek

This collection includes research papers presented by scientists, graduate students, and students at the International Scientific Online Conference “**INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY SCIENCE CONFERENCE**” held in Italy on April, 2026.

The conference proceedings are intended for researchers and academic staff of higher education institutions. They may be used for teaching and research purposes, including postgraduate education and preparation for bachelor’s and master’s degree programs.

All submitted articles underwent peer review by qualified experts. The materials are published in accordance with copyright regulations. The authors are fully responsible for the accuracy of the content, research findings, and any errors.

Quantumqill Research Press PVT LTD, 2026

Pseudonyms of famous uzbek writers and poets: origin and formation

Avezova Dilovar Salimovna

Teacher at the Department of Russian Language and Literature,

Faculty of Philology, Bukhara State University

d.s.avezova@buxdu.uz](mailto:d.s.avezova@buxdu.uz

Abstract. This article examines the pseudonyms of representatives of Uzbek literature, the reasons for their emergence, as well as their linguistic and semantic features. It also analyzes why authors abandon their real names in favor of pseudonyms and discusses the relevance of using pseudonyms in the present day.

Keywords: anthroponym, pseudonym, pen name, linguoculturology, onomastics, Uzbek literature.

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek adabiyoti vakillarining taxalluslari, ularning paydo bo‘lish sabablari, lingvistik va semantik xususiyatlari o‘rganiladi. Shuningdek, ijodkorlarning nega o‘z haqiqiy ismlaridan voz kechib, taxallus tanlashlari hamda bugungi kunda taxalluslardan foydalanish dolzarbligi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: antropomim, taxallus, soxta ism, lingvokulturologiya, ismshunoslik, o‘zbek adabiyoti.

Kirish. Ijodkor insonlar nega o‘z asarlarini boshqa ism ostida e‘lon qilishadi? Bu savolga javob topish uchun yozuvchi va shoirlarning hayot yo‘liga nazar tashlash zarur. Har bir insonning o‘z taqdiri bor, biroq mashhurlikka erishish faqat iste‘dod bilanгина cheklanmaydi. Ko‘pincha buning uchun mehnat, bilim va o‘z ustida ishlash bilan birga esda qolarli ism ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Taxallus tanlash sabablari turlicha bo‘lishi mumkin:

- ❖ ta‘qibdan qo‘rqish;
- ❖ familiyaning yoqimsiz yoki esda qolmasligi;
- ❖ ijtimoiy mavqe sabab ochiq chiqish imkonining yo‘qligi;

- ❖ tanqiddan himoyalaniş;
- ❖ o‘xshash ismli boshqa mualliflardan farqlaniş;
- ❖ sirli obraz yaratish istagi.

Ba’zi ijodkorlar esa shunchaki kamtarlik yoki shon-shuhratdan qochish sababli taxallusdan foydalanganlar.

Taxallus tanlashning asosiy sabablari:

- ❖ ijodiy yo‘nalishni ifodalash;
- ❖ qisqa va esda qolarli ism yaratish;
- ❖ ijtimoiy yoki siyosiy sabablarga ko‘ra yashirinish;
- ❖ estetik did va davr talablari.

Taxalluslarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ❖ uzun ismni qisqartirib, esda qoladigan shakl yaratish;
- ❖ ijod yo‘nalishiga mos “gapiruvchi” ism tanlash;
- ❖ millati yoki kelib chiqishini yashirish;
- ❖ boshqa shaxslar bilan chalkashlikning oldini olish.

Qadim zamonlarda ham taxallus yoki laqablar keng qo‘llanilgan. Masalan, mashhur tabib Ibn Sino nomi aslida “Sino o‘g‘li” ma’nosini bildiradi. Bu otaning ismi orqali shaxsni aniqlash usulidir. O‘zbek adabiyotida taxallus tanlash qadimiy an’analardan biridir. Ko‘plab shoir va yozuvchilar o‘z asarlarini haqiqiy ism emas, balki maxsus tanlangan taxallus bilan e’lon qilganlar. Bu holat nafaqat yashirinish, balki ijodiy obraz yaratish, o‘z qarashlarini ifodalash vositasi sifatida ham xizmat qilgan.

Lingvistik yondashuv va antroponimika.

Tilshunos V. I. Suprun antroponimik tizimni uch qismga ajratadi:

1. Yadro – shaxsiy ismlar va ularning qisqa shakllari
2. Yadro atrofi – otasining ismi, familiya
3. Periferiya – taxallus va laqablar

Taxalluslar periferiya qismiga kirsa-da, ular semantik jihatdan juda boy va muhim hisoblanadi.

O‘zbek yozuvchilarining mashhur taxalluslari. O‘zbek adabiyotida ko‘plab “gapiruvchi” taxalluslar mavjud bo‘lib, ular muallifning ichki dunyosini aks ettiradi.

Alisher Navoiy. Asl ismi Nizomiddin Mir Alisher. “Navoiy” so‘zi “navo” (ohang, kuy) so‘zidan olingan bo‘lib, ijodkorning san’at va she’riyatga bo‘lgan yaqinligini bildiradi.

Zahiriddin Muhammad Bobur. “Bobur” taxallusi “yo‘lbars” ma’nosini anglatadi va kuch, jasorat ramzi hisoblanadi.

Abdulla Qodiriy. Ba’zi asarlarida turli taxalluslardan foydalangan. U o‘z davrida siyosiy bosim tufayli yashirin yozishga majbur bo‘lgan.

Cho‘lpon. Asl ismi Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li. “Cho‘lpon” tong yulduzi ma’nosini bildiradi va uyg‘onish, yangilanish timsolidir.

Fitrat. Asl ismi Abdurauf Fitrat. “Fitrat” – “tabiat”, “yaratilish” degan ma’noni anglatib, inson mohiyatiga urg‘u beradi.

Gafur Ghulom. Ba’zan satirik ruhdagi ijodida turli obrazli nomlardan foydalangan.

Abdulla Oripov. O‘z nomi bilan ijod qilgan bo‘lsa-da, ayrim she’rlarida ramziy obrazlar orqali o‘ziga xos “ichki taxallus” yaratgan.

Taxalluslarning semantik xususiyatlari.

O‘zbek yozuvchilarining taxalluslari ko‘pincha quyidagi ma’nolarni ifodalaydi:

1. Tabiat va go‘zallik: Navoiy, Cho‘lpon
2. Kuch va jasorat: Bobur
3. Falsafiy va ma’naviy tushunchalar: Fitrat
4. Ijtimoiy yoki ramziy ma’no: Ba’zi jadid yozuvchilarida uchraydi. Bu taxalluslar orqali muallif o‘z ijodiy konsepsiyasini o‘quvchiga yetkazadi.

Lingvistik ahamiyati. Taxalluslar antroponimikaning muhim qismi bo‘lib, ular til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Ular:

- ❖ milliy qadriyatlarni aks ettiradi;
- ❖ tarixiy davr ruhini ifodalaydi;
- ❖ muallifning estetik qarashlarini ochib beradi.

Xulosa. Taxalluslar – bu nafaqat yashirin ism, balki muallifning ichki dunyosi, ijtimoiy qarashi va estetik idealini aks ettiruvchi muhim lingvistik hodisadir. Ular antroponimikaning muhim qismi bo‘lib, madaniyatlararo aloqalarni o‘rganishda ham katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda ham taxalluslardan foydalanish dolzarbligicha qolmoqda, ayniqsa internet va ommaviy axborot vositalari rivojlangan davrda ular yangi shakllarda namoyon bo‘lmoqda. O‘zbek yozuvchilari taxalluslari nafaqat nom, balki chuqur ma’no va ramziy yuklamaga ega bo‘lgan lingvistik hodisadir. Ular orqali ijodkorning shaxsiyati, dunyoqarashi va davr muammolari namoyon bo‘ladi. Hozirgi kunda ham taxalluslardan foydalanish davom etmoqda, ayniqsa internet va zamonaviy adabiyotda bu an’ana yangi shakllarda rivojlanmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Усмонов А. «О‘zbek onomastikasi asoslari.» — Toshkent: Fan, 2007.
2. Rahmatullayev Sh. «О‘zbek ismlari: ma’nosi va tuzilishi.» — Toshkent: Sharq, 2010.
3. Трофимова, Г. Н. Функционирование русского языка в Интернете: концептуально-сущностные доминанты: автореф. дис. ... д-ра филол. наук / Г. Н. Трофимова. – М., 2004. – 32 с.
4. Шипицина, Л. Ю. Понятие жанра компьютерно-опосредованной коммуникации / Л. Ю. Шипицина // Вестн. Помор. ун-та. Сер. «Гуманит и соц науки». – 2009. – № 3. – С. 68–74.
5. Avezova D. Speaking surnames and their role in the stylistic image of a work of art // Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. C10. – С. 59-62.

PROBLEMS AND SHORTCOMINGS IN WASTE RECYCLING

Rahmonova Nurjahon Odiljon qizi

Master's Student Karshi State University

nurjahon4114@gmail.com +998 88 130 41 14

Annotation: this article highlights the relevance of waste recycling, its impact on the environment, and the necessity of effective management. The study analyzes issues such as proper waste sorting, development of recycling systems, and ensuring active public participation in this process. Additionally, based on foreign experience, the ecological and economic benefits of waste recycling, as well as the importance of ongoing reforms in this field in Uzbekistan, are discussed.

Keywords: waste, recycling, ecology, environment, resource conservation, waste management, sustainable development.

Annotatsiya: Ushbu maqolada chiqindilarni qayta ishlash masalasining dolzarbligi, uning atrof-muhitga ta'siri hamda samarali boshqarish zaruriyati yoritilgan. Maqolada chiqindilarni to'g'ri saralash, ularni qayta ishlash tizimini rivojlantirish va bu jarayonda aholining faol ishtirokini ta'minlash masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, xorijiy tajribalar asosida chiqindilarni qayta ishlashning ekologik va iqtisodiy afzalliklari hamda O'zbekistonda ushbu yo'nalishdagi islohotlarning ahamiyati ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: chiqindilar, qayta ishlash, ekologiya, atrof-muhit, resurs tejash, chiqindilarni boshqarish, barqaror rivojlanish

ПРОБЛЕМЫ И НЕДОСТАТКИ ПЕРЕРАБОТКИ ОТХОДОВ

Аннотация:

В данной статье освещается актуальность переработки отходов, её влияние на окружающую среду, а также необходимость эффективного управления. В статье анализируются вопросы правильной сортировки отходов, развития

системы переработки и обеспечения активного участия населения в данном процессе. Также на основе зарубежного опыта рассматриваются экологические и экономические преимущества переработки отходов и значение проводимых реформ в этой сфере в Узбекистане.

Ключевые слова: отходы, переработка, экология, окружающая среда, ресурсосбережение, управление отходами, устойчивое развитие

Kirish. Chiqindilarni qayta ishlash bugungi kunda ekologik barqarorlikni ta'minlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning muhim strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Aholi sonining ortib borishi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi va iste'mol hajmining kengayishi natijasida chiqindilar miqdori keskin oshib bormoqda. Bu esa chiqindilarni samarali boshqarish tizimini shakllantirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Shu bilan birga, mazkur sohada qator tizimli muammolar mavjud bo'lib, ular qayta ishlash jarayonining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Eng muhim muammolardan biri chiqindilarni manbaida saralash darajasining pastligidir. Aralash holda yig'ilgan chiqindilarni keyinchalik ajratish murakkab, ko'p mehnat va qo'shimcha moliyaviy resurslarni talab qiladi, bu esa umumiy jarayon samaradorligini pasaytiradi.

Ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda ham, chiqindilarni qayta ishlash infratuzilmasi hali to'liq shakllanmagan. Aholi yashash punktlarida chiqindilarni yig'ish va saralash tizimlari yetarli darajada rivojlanmagan bo'lib, mavjud korxonalar esa ko'pincha eskirgan texnologiyalar asosida faoliyat yuritadi. Bu holat zamonaviy va samarali qayta ishlash jarayonlarini joriy etishni cheklab qo'yimoqda.

Moliyaviy resurslarning yetishmasligi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining cheklanganligi ham ushbu sohaning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillardan biridir. Rivojlangan davlatlarda chiqindilarni qayta ishlash faoliyati turli

subsidiyalar, grantlar va soliq imtiyozlari orqali rag‘batlantirilsa, O‘zbekistonda bu kabi mexanizmlar hali to‘laqonli yo‘lga qo‘yilmagan.

Bundan tashqari, aholi o‘rtasida ekologik madaniyat va savodxonlik darajasining pastligi ham muhim muammo hisoblanadi. Ko‘plab fuqarolar chiqindilarni saralash va qayta ishlashning ahamiyatini yetarlicha anglamaydi, bu esa qayta ishlanadigan xomashyo sifatining pasayishiga olib keladi.

Zamonaviy texnologiyalarning yetarli darajada joriy etilmagani ham muammolardan biridir. Xususan, optik ajratish uskunalari, sun‘iy intellekt asosidagi saralash tizimlari kabi ilg‘or texnologiyalar kam qo‘llanilishi natijasida jarayonning aniqligi va samaradorligi past darajada qolmoqda. Shu bilan birga, chiqindilarni energiyaga aylantirish texnologiyalari — piroliz va gazifikatsiya usullari — keng joriy etilmagan bo‘lib, mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanilmayapti.

Sohada xususiy sektor ishtirokining pastligi va faoliyatni tartibga soluvchi huquqiy asoslarning yetarli darajada rivojlanmaganligi ham muhim omillardan biridir. Bundan tashqari, chiqindilarni tashish va logistika tizimining samarasizligi, chiqindi poligonlarining ekologik talab va standartlarga to‘liq javob bermasligi atrof-muhitga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Yana bir dolzarb masala — qayta ishlangan mahsulotlarga ichki bozorda talabning pastligidir. Ko‘pincha bunday mahsulotlar sifatsiz deb baholanadi va iste‘molchilar tomonidan yetarlicha qabul qilinmaydi. Bu esa mazkur yo‘nalishga investitsiya kiritish jozibadorligini kamaytiradi.

Shuningdek, ishlab chiqaruvchilarning chiqindilar uchun javobgarligi ham yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Xususan, “ishlab chiqaruvchining kengaytirilgan mas‘uliyati” (EPR) tizimi rivojlangan davlatlarda majburiy mexanizm sifatida amal qilsa-da, O‘zbekistonda u hali to‘liq joriy etilmagan.

Yuqoridagi muammolar chiqindilarni qayta ishlash tizimini kompleks ravishda takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda aholining ekologik ongini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Yana bir dolzarb muammolardan biri — chiqindilarni qayta ishlash sohasida milliy strategiya va aniq maqsadli indikatorlar tizimining yetarli darajada shakllanmaganligidir. Rivojlangan davlatlar amaliyotida chiqindilar hajmini kamaytirish va qayta ishlash ulushini oshirish bo'yicha aniq ko'rsatkichlar belgilab boriladi. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tomonidan 2030-yilga qadar qattiq maishiy chiqindilarning kamida 65 foizini qayta ishlash maqsadi qo'yilgan bo'lsa, O'zbekistonda bu borada aniq va majburiy ko'rsatkichlar tizimi hali to'liq shakllanmagan.

Shu bilan birga, chiqindilarni boshqarish tizimida raqamlashtirish darajasi ham pastligicha qolmoqda. Chiqindilar hajmi, tarkibi, yig'ilishi va qayta ishlanishi bo'yicha real vaqt rejimida ishlovchi yagona monitoring tizimining mavjud emasligi samarali boshqaruvni cheklaydi. Natijada, resurslarni to'g'ri taqsimlash va strategik rejalashtirish jarayonlarida muayyan qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi. Bunda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish, ilmiy-texnik yutuqlarni joriy etish hamda keng jamoatchilik ishtirokini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Chiqindilar nafaqat atrof-muhit, balki aholi salomatligi uchun ham jiddiy xavf manbai hisoblanadi. Ularning to'planishi hududlarning sanitariya holatiga, ekologik muvozanatiga hamda mamlakatning xalqaro imijiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois chiqindilarni samarali boshqarish masalasi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ushbu yo'nalishda muayyan islohotlar amalga

oshirilmoqda. Xususan, “Yashil makon” loyihasi doirasida chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish, ekologik muhitni yaxshilash va ko‘kalamzorlashtirish ishlariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ushbu tashabbuslar doirasida o‘tkazilgan yig‘ilishlarda sohada mavjud muammolar tanqidiy tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilab berilmoqda.

Rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, mamlakatda yiliga o‘rtacha 14–14,5 million tonna maishiy chiqindilar hosil bo‘ladi. Aholi sonining o‘shish sur‘atlari hisobga olinganda, bu ko‘rsatkich yaqin yillarda 16–16,7 million tonnaga yetishi kutilmoqda. Shu bilan birga, sanoat chiqindilari hajmi 100 million tonnadan oshishi prognoz qilinmoqda.

Hozirgi kunda respublika bo‘yicha aholining 90 foizdan ortig‘i maishiy chiqindilarni yig‘ish va olib chiqib ketish xizmatlari bilan qamrab olingan. Ushbu xizmatlar davlat va xususiy sektor hamkorligida amalga oshirilib, tizimda minglab maxsus texnikalar, chiqindi yig‘ish maydonchalari va konteynerlar faoliyat yuritmoqda.

Chiqindilarni joylashtirish uchun respublika hududida yuzlab chiqindi poligonlari mavjud bo‘lib, ularda katta hajmdagi chiqindilar to‘plangan. Biroq ularning bir qismi sanitariya va ekologik talablarga javob bermasligi sababli foydalanishdan chiqarilgan. Bu esa yangi, zamonaviy va ekologik xavfsiz infratuzilma yaratish zaruratini yanada dolzarb qilib qo‘ymoqda.

Yuqoridagi holatlar chiqindilarni boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish hamda davlat, xususiy sektor va aholi o‘rtasida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish zarurligini ko‘rsatadi.

Chiqindi poligonlarini boshqarish va sohaga zamonaviy texnikalarni jalb etish yo‘nalishida ham muayyan amaliy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, 2024–2026-yillarga mo‘ljallangan manzilli dastur doirasida 2024-yilda 36 ta maishiy chiqindi poligonini rekultivatsiya qilish, 6 ta poligoni tartibga keltirish hamda 3 ta chiqindilarni qayta yuklash stansiyasini qurish rejalashtirilgan bo‘lib, bu borada amaliy choralar

ko‘rilmogda.

Shu bilan birga, sohada mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida muhim normativ-huquqiy hujjatlar ham qabul qilinmogda. Xususan, joriy yil 4-yanvarda “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik holatga salbiy ta’sirini kamaytirish bo’yicha chora-tadbirlar to’g’risida”gi Prezident farmoni qabul qilindi. Mazkur hujjatda chiqindilarni qayta ishlash darajasini oshirish, poligonlarda chiqindilar to’planishining oldini olish, atrof-muhitga salbiy ta’sirni minimallashtirish, “nol chiqindi” tamoyiliga erishish hamda aylanma (tsirkulyar) iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Aholining ekologik faolligini oshirish maqsadida innovatsion rag’batlantirish mexanizmlari ham joriy etilmogda. Jumladan, noqonuniy chiqindi tashlash holatlarini aniqlash uchun fuqarolarga o’z mablag’lari hisobidan foto va video qayd etish qurilmalarini o’rnatish imkoniyati yaratilgan. Natijada aniqlangan huquqbuzarliklar bo’yicha undirilgan jarimalarning bir qismi ushbu tashabbus egalariga mukofot sifatida berilishi nazarda tutilgan. Bu esa aholini o’z hududining tozaligini nazorat qilishga rag’batlantiradi.

Bundan tashqari, “Xavfsiz shahar” integratsiyalashgan tizimi doirasida ekologik huquqbuzarliklarni aniqlash uchun videokuzatuv kameralaridan foydalanish amaliyoti joriy etilmogda. Ushbu tizim nazorat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Sohada mehnat qilayotgan xodimlarni rag’batlantirishga ham alohida e’tibor qaratilmogda. Xususan, sanitar tozalash korxonalari ishchilari, obodonlashtirish xizmati xodimlari, eko-faollar va jamoatchilik ekologik nazoratchilarini qo’llab-quvvatlash maqsadida turli moddiy va ma’naviy rag’batlantirish choralarini joriy etish belgilangan. Jumladan, Ekologiya jamg’armasi mablag’lari hisobidan muntazam ravishda mukofotlar ajratilishi ko’zda tutilgan.

Shuningdek, chiqindilarni boshqarish tizimida raqamlashtirish jarayonlari ham

bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Xususan, sanitar tozalash xizmatlari uchun elektron to'lov tizimlarini keng joriy qilish orqali hisob-kitoblarning shaffofligini ta'minlash va debitor qarzdorlikni kamaytirish maqsad qilingan. Bu borada barcha xizmat ko'rsatuvchi korxonalarini yagona elektron tizimga ulash, mazkur talablarni bajarmagan subyektlar bilan shartnomalarni bekor qilish hamda xizmat ko'rsatish hududlarini boshqa samarali operatorlarga biriktirish mexanizmlari ishlab chiqilmoqda.

Huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralarini kuchaytirish ham muhim yo'nalishlardan biridir. Jumladan, chiqindilarni belgilangan joylardan tashqariga tashlash bilan bog'liq holatlar uchun jarimalarni oshirish, huquqbuzarlik sodir etishda foydalanilgan vositalarni musodara qilish kabi choralar nazarda tutilgan. Shuningdek, chiqindilarni noqonuniy olib chiqib ketish, hududlarni tozalash majburiyatlarini bajarmaslik natijasida atrof-muhitga zarar yetkazgan jismoniy va yuridik shaxslar uchun javobgarlikni kuchaytirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmoqda.

Yuqoridagi chora-tadbirlar chiqindilarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va aholining ekologik madaniyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maishiy chiqindilarni qayta ishlash faoliyatini yanada rivojlantirish va rag'batlantirish maqsadida yangi iqtisodiy mexanizmlar joriy etilmoqda. Xususan, chiqindilarni qayta ishlash yoki ularni ekologik xavfsiz tarzda utilizatsiya qilish bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlik subyektlariga "yashil subsidiyalar" ajratish tizimi yo'lga qo'yilmoqda. Shu bilan birga, chiqindilarni manbaida saralash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish maqsadida ayrim hududlarda pilot loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu tizim doirasida chiqindilar "qayta ishlanadigan", "qayta ishlanmaydigan" va "organik (oziq-ovqat)" toifalarga ajratilib yig'ilishi tashkil etilib, aholiga turli rangdagi maxsus paketlar bepul tarqatilishi nazarda tutilgan.

Biroq, amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramasdan, chiqindi poligonlarining holati hanuzgacha qator muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda. Ayrim hududlarda chiqindilarni yig'ish va olib chiqish xizmatlari to'liq yo'lga qo'yilmagan bo'lib, bu xizmatlar bilan qamrov darajasi yetarli emas. Shuningdek, ushbu sohada davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi xususiy sektor ishtirokini cheklab qo'yimoqda.

Ko'plab chiqindi poligonlarida chiqindilarni saqlash va ko'mish bo'yicha belgilangan talablar to'liq bajarilmaydi. Jumladan, poligonlarni joylashtirishda zarur bo'lgan geologik va gidrogeologik tadqiqotlar o'tkazilmagan, ekologik ekspertiza xulosalari mavjud emas yoki yetarli darajada emas. Ba'zi poligonlar sanitariya-epidemiologik xulosalarsiz faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari, chiqindilarni ko'mish va utilizatsiya qilish joylari bo'yicha davlat kadastr to'liq yuritilmayotgani ham tizimli muammolardan biridir.

Ayrim poligonlarda chiqindilar hisobini yuritish, chiqindi pasportlarini shakllantirish, sanitariya himoya zonalarini tashkil etish kabi talablar bajarilmagan. Infratuzilma jihatidan ham kamchiliklar mavjud bo'lib, ko'plab poligonlar ichimlik suvi, elektr energiyasi, xizmat xonalari bilan to'liq ta'minlanmagan, ayrimlarining kirish yo'llari mavjud emas yoki hududi to'liq o'ralmagan.

Umuman olganda, qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash zamonaviy ekologik va iqtisodiy siyosatning ajralmas qismi bo'lib, atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan oqilona foydalanish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, mazkur sohada mavjud tizimli muammolar nafaqat ekologik, balki ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikka ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston misolida chiqindilarni boshqarish tizimi hali to'liq shakllanmagan bo'lib, saralash, yig'ish, tashish va qayta ishlash jarayonlari o'zaro integratsiyalashgan

yagona tizim asosida ishlaymagan. Aholining ekologik savodxonligining pastligi, infratuzilmaning yetarli emasligi, moliyaviy resurslarning cheklanganligi, zamonaviy texnologiyalarning kam qo'llanilishi, qonunchilikdagi ayrim bo'shliqlar hamda raqamli monitoring tizimining yetishmasligi sohaning rivojlanishiga asosiy to'siq bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, ishlab chiqaruvchilar va xususiy sektor ishtirokining sustligi hamda qayta ishlangan mahsulotlarga talabning pastligi iqtisodiy samaradorlikni pasaytirmoqda.

Xalqaro tajriba va mavjud statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, chiqindilarni samarali boshqarish uchun kompleks yondashuv zarur. Bu esa, avvalo, chiqindilarni manbaida saralash madaniyatini shakllantirish, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, logistika tizimini optimallashtirish, davlat-xususiy sheriklik asosida infratuzilmani rivojlantirish, iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish hamda ishlab chiqaruvchilarning ekologik mas'uliyatini oshirishni talab etadi.

Shu asosda aytish mumkinki, chiqindilarni qayta ishlash tizimini takomillashtirish nafaqat ekologik muammolarni bartaraf etish, balki mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirish bugungi kunda ekologik barqarorlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda aholi salomatligini muhofaza qilishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, mazkur sohada mavjud tizimli muammolar — chiqindilarni manbaida saralashning sustligi, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, zamonaviy texnologiyalarning kam joriy etilishi, moliyaviy resurslarning cheklanganligi va ekologik savodxonlikning pastligi — sohaning samarali ishlashiga jiddiy to'sqinlik qilmoqda.

Shu bilan birga, chiqindilarni boshqarish tizimida raqamlashtirish darajasining pastligi, aniq strategik maqsad va indikatorlarning yetishmasligi, xususiy sektor

ishtirokining sustligi ham muammolarni yanada murakkablashtirmoqda. Poligonlarning ekologik talablarga to‘liq javob bermasligi va logistika tizimidagi kamchiliklar esa atrof-muhitga salbiy ta‘sirni kuchaytirmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv zarur bo‘lib, u quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi: chiqindilarni manbaida saralash tizimini keng joriy etish, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, davlat-xususiy sheriklik asosida infratuzilmani rivojlantirish, iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, aholining ekologik madaniyatini oshirish hamda ishlab chiqaruvchilarning ekologik mas‘uliyatini kuchaytirish.

Shunday qilib, chiqindilarni qayta ishlash tizimini takomillashtirish nafaqat ekologik muammolarni hal etish, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash, yashash sifatini yaxshilash va kelajak avlodlar uchun sog‘lom muhit yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi. Chiqindilarni boshqarish bo‘yicha statistik ma‘lumotlar to‘plami. – Toshkent, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni. – Toshkent, 2024.
3. Islom Xushvaqtov. O‘zbekistonda chiqindilarni boshqarish tizimi va muammolari. – Toshkent: Fan, 2022.
4. World Bank. What a Waste 2.0: A Global Snapshot of Solid Waste Management to 2050. – Washington, 2018.
5. European Commission. Waste Management and Recycling Targets. – Brussels, 2020.
6. UNEP (United Nations Environment Programme). Global Waste

Management Outlook. – Nairobi, 2015.

7. OECD. Waste Management and Circular Economy in Developing Countries. – Paris, 2019.

8. Asian Development Bank. Solid Waste Management in Central Asia. – Manila, 2021.

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Chiqindi poligonlariga qo‘yiladigan sanitariya va ekologik talablar. – Toshkent, 2022.

10. Qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish bo‘yicha milliy hisobot. – Toshkent, 2023.

11. Extended Producer Responsibility (EPR) Guidelines. – OECD, 2021.

12. Raqamli ekologiya va chiqindilar monitoringi tizimlari bo‘yicha tahliliy hisobot. – Toshkent, 2023.

DEVELOPMENT OF STUDENTS' WRITTEN AND ORAL SPEECH COMPETENCE BASED ON METACOGNITIVE STRATEGIES

Mamadjanova Shoxida Nemat qizi

2nd cycle doctoral student at Namangan State University

mamadjanovashohida545@gmail.com

Tel: +998975930039

Annotation: This article examines the role of metacognitive strategies in developing students' written and oral communicative competence. Metacognition is interpreted as the learner's ability to be aware of, plan, monitor, and evaluate their own cognitive processes. The study explores both theoretical and practical aspects of forming speech activity based on a metacognitive approach. Particular attention is paid to the development of reflective thinking as a key factor in enhancing students' communicative competence. The findings demonstrate that the application of metacognitive strategies significantly improves the quality of both written and oral speech.

Keywords: metacognition, communicative competence, writing skills, speaking skills, reflection, strategy, learning process.

METAKOGNITIV STRATEGIYALAR ASOSIDA TALABALARNING YOZMA VA OG'ZAKI NUTQ KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Mamadjanova Shoxida Nemat qizi

Namangan davlat universiteti 2- bosqich doktoranti

@mamadjanovashohida545gmail.com

Tel:+998975930039

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarning yozma va og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishda metakognitiv strategiyalarning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Metakognitsiya tushunchasi talabaning o'z bilish jarayonini anglash, rejalashtirish, nazorat qilish va baholash qobiliyati sifatida talqin etiladi. Tadqiqot

davomida metakognitiv yondashuv asosida nutq faoliyatini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, talabalarda reflektiv fikrlashni rivojlantirish orqali ularning nutqiy kompetensiyasini oshirish mexanizmlari ochib berilgan. Natijada metakognitiv strategiyalarning qo'llanilishi yozma va og'zaki nutq sifatini sezilarli darajada yaxshilashi ilmiy asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: metakognitsiya, nutq kompetensiyasi, yozma nutq, og'zaki nutq, refleksiya, strategiya, o'quv jarayoni.

РАЗВИТИЕ ПИСЬМЕННОЙ И УСТНОЙ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ МЕТАКОГНИТИВНЫХ СТРАТЕГИЙ

Аннотация: В данной статье анализируется роль метакогнитивных стратегий в развитии письменной и устной речевой компетенции студентов. Метакогниция рассматривается как способность обучающегося осознавать, планировать, контролировать и оценивать собственный познавательный процесс. В ходе исследования раскрываются теоретические и практические аспекты формирования речевой деятельности на основе метакогнитивного подхода. Особое внимание уделяется развитию рефлексивного мышления студентов как ключевого фактора повышения их речевой компетенции. В результате обосновывается, что применение метакогнитивных стратегий способствует значительному улучшению качества письменной и устной речи.

Ключевые слова: метакогниция, речевая компетенция, письменная речь, устная речь, рефлексия, стратегия, учебный процесс.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish va takomillashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yozma va og'zaki nutq ko'nikmalari nafaqat lingvistik bilimlarning amaliy ifodasi, balki shaxsning intellektual

va ijtimoiy rivojlanish darajasini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois nutq kompetensiyasini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika va lingvodidaktika fanlarida dolzarb ilmiy muammo sifatida e’tirof etilmoqda.

An’anaviy ta’lim yondashuvlarida nutq ko‘nikmalarini shakllantirish ko‘proq reproduktiv faoliyatga asoslangan bo‘lib, talabaning ichki bilish jarayonlari, xususan, o‘z fikrlashini anglash va boshqarish qobiliyatiga yetarlicha e’tibor qaratilmaydi. Natijada talaba nutq faoliyatini mexanik tarzda bajaradi, ammo uning mazmuniy va mantiqiy chuqurligi yetarli darajada rivojlanmaydi. Bu esa o‘z navbatida nutqning sifat ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, metakognitiv yondashuv ta’lim jarayoniga yangi metodologik imkoniyatlarni olib kiradi. Metakognitsiya talabaning o‘z bilish faoliyatini ongli ravishda boshqarishi, ya’ni rejalashtirish, monitoring qilish va baholash kabi jarayonlarni amalga oshirishi bilan tavsiflanadi. Mazkur yondashuv orqali talaba nafaqat bilimni egallaydi, balki o‘z o‘rganish strategiyalarini ham shakllantiradi, bu esa uning nutq kompetensiyasini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi globallashuv sharoitida yuqori darajadagi kommunikativ kompetensiyaga ega mutaxassislarni tayyorlash zarurati ortib bormoqda. Bu esa yozma va og‘zaki nutqni rivojlantirishda innovatsion, xususan, metakognitiv strategiyalarga asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi – metakognitiv strategiyalar asosida talabalarning yozma va og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini tahlil qilishdan iborat. Shu bilan birga, ushbu yondashuvning samaradorligini aniqlash va uni ta’lim jarayoniga joriy etishning metodik yo‘llarini asoslab berish vazifasi qo‘yiladi.

ASOSIY QISM

Metakognitiv strategiyalar asosida talabalarning yozma va og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish masalasi zamonaviy lingvodidaktika, pedagogika va psixolingvistika kesishgan nuqtada joylashgan murakkab ilmiy muammodir. Mazkur yondashuvning mohiyati shundan iboratki, ta‘lim jarayonida talaba faqat til birliklarini o‘zlashtiruvchi subyekt sifatida emas, balki o‘z bilish faoliyatini anglaydigan, rejalashtiradigan, nazorat qiladigan va baholaydigan faol shaxs sifatida qaraladi. Metakognitsiya tushunchasi ilmiy adabiyotlarda odatda “tafakkur ustidan tafakkur” yoki shaxsning o‘z kognitiv jarayonlarini kuzatishi va boshqarishi sifatida talqin qilinadi [1]. Keyingi tadqiqotlarda esa metakognitiv faoliyat ikki yirik tarkibiy qismga – kognitsiya haqidagi bilim va kognitsiyani boshqarish komponentlariga ajratilib izohlangan [2]. Bu ikki tarkibiy qism talabaning yozma hamda og‘zaki nutq faoliyatini ongli ravishda tashkil etishida asosiy nazariy tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Yozma va og‘zaki nutq kompetensiyasi tilni bilishning alohida ko‘rinishi emas, balki kommunikativ maqsadni aniq ifodalash, fikrni mantiqiy tizimga solish, auditoriyani hisobga olish, uslubiy moslikni saqlash va nutqiy faoliyat natijasini tanqidiy baholash kabi ko‘nikmalar majmuasini o‘z ichiga oladi. Shu sababli mazkur kompetensiyani shakllantirishda oddiy reproduktiv mashqlar yetarli bo‘lmaydi. Talaba matn yaratish yoki og‘zaki bayon qilish jarayonida “nima demoqchiman?”, “qanday usulda ifodalashim maqsadga muvofiq?”, “mantiqiy bog‘liqlik qay darajada ta‘minlangan?”, “tinglovchi yoki o‘quvchi matnni qanday qabul qiladi?” kabi savollarni o‘ziga bera olishi lozim. Ana shu ichki nazorat va tahlil mexanizmi metakognitiv strategiyalarning amaliy ko‘rinishidir [2]. Tadqiqotlar metakognitiv xabardorlikning yuqori darajasi o‘quv natijalari bilan ijobiy bog‘liqligini ko‘rsatadi, bu esa nutq faoliyati sifatiga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatishini anglatadi [3].

Metakognitiv strategiyalar odatda rejalashtirish, monitoring va baholash bosqichlari orqali tavsiflanadi [4]. Rejalashtirish bosqichida talaba nutqiy vazifani

anglaydi, maqsadni belgilaydi, mavzuga oid bilimlarini faollashtiradi, kerakli til materialini tanlaydi va nutqni qurish strategiyasini ishlab chiqadi. Yozma nutqda bu jarayon mavzuni tahlil qilish, kalit g'oyalarni ajratish, kompozitsion reja tuzish, dalillarni joylashtirish va uslubiy yo'nalishni belgilash ko'rinishida namoyon bo'ladi. Og'zaki nutqda esa rejalashtirish tinglovchi auditoriyasini hisobga olish, chiqish maqsadini aniqlash, asosiy tezislarni ketma-ketlikka solish, misollar va argumentlarni tanlash hamda ehtimoliy savollarga oldindan tayyorgarlik ko'rishni anglatadi. Demak, metakognitiv rejalashtirish nutqning spontan emas, balki maqsadga yo'naltirilgan, mazmunan puxta va struktur jihatdan izchil bo'lishini ta'minlaydi [4].

Monitoring bosqichi metakognitiv faoliyatning markaziy bo'g'ini hisoblanadi. Aynan shu bosqichda talaba o'z fikrining rivojlanishini kuzatadi, matn yoki nutq mantiqini tekshiradi, maqsaddan chetga chiqish holatlarini sezadi va zarur o'rinlarda o'z faoliyatiga tuzatish kiritadi. Yozma nutqda monitoring matnning kirish, asosiy qism va xulosa o'rtasidagi mutanosiblikni nazorat qilish, gaplararo bog'liqlikni mustahkamlash, terminlarning o'rinli qo'llanishini tekshirish, ortiqcha takrorlar va mantiqiy uzilishlarni aniqlash orqali amalga oshadi. Og'zaki nutqda esa monitoring talaffuz, intonatsiya, grammatik to'g'rilik, fikrning ravonligi, kommunikativ vaziyatga moslik va tinglovchining reaksiyasini hisobga olish bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Metakognitiv monitoring nutqni mexanik ifodalashdan ongli kommunikativ faoliyatga aylantiradi [1], [2].

Baholash bosqichi nutqiy faoliyat yakunida yuzaga keladigan reflektiv tahlil jarayonidir. Ushbu bosqichda talaba "maqsadga erishdimmi?", "fikrim tushunarli bo'ldimi?", "dalillar yetarli mi?", "ifoda usulim auditoriyaga mos keldimi?", "qaysi xatolar keyingi safar takrorlanmasligi kerak?" kabi mezonlar asosida o'z faoliyatini tahlil qiladi. Baholash faqat tayyor natijani ko'rish emas, balki kelgusi nutqiy faoliyat strategiyasini takomillashtirishga xizmat qiladigan pedagogik mexanizmdir. Shu

ma'noda metakognitiv baholash jarayoni talabani o'z-o'zini rivojlantirishiga, o'quv mustaqilligiga va nutq kompetensiyasining barqaror shakllanishiga yordam beradi [2], [3].

Yozma nutqni rivojlantirishda metakognitiv strategiyalar ayniqsa muhimdir, chunki yozish jarayoni ko'p bosqichli intellektual faoliyat bo'lib, unda g'oyani tanlash, uni kompozitsion jihatdan tartiblash, dalillash, tahrirlash va qayta ishlash ketma-ket amalga oshiriladi. Tadqiqotlar metakognitiv strategiyalarga asoslangan yozuv amaliyotlari o'quvchilarning yozish sifati, o'ziga bo'lgan ishonchi va nazorat ko'nikmalarini sezilarli darajada yaxshilashini ko'rsatgan [5], [6]. Bunday yondashuv talabalarda matn yaratishga "tayyor mahsulot" sifatida emas, balki rejalashtirish, yozish, qayta ko'rib chiqish va tahrirlashdan iborat jarayon sifatida qarashni shakllantiradi. Natijada yozma ishda mavzudan chekinish kamayadi, matnning ichki mantiqi mustahkamlanadi, argumentatsiya sifati yaxshilanadi va til vositalari maqsadga muvofiq tanlanadi [5].

Yozma nutq faoliyatida metakognitiv strategiyalarni tatbiq etishning samarali usullaridan biri – yozishdan oldingi reflektiv tayyorgarlikdir. Bu jarayonda talaba mavzu bo'yicha dastlabki bilimlarini aniqlaydi, o'zining kuchli va sust tomonlarini baholaydi, maqsadli auditoriyani tasavvur qiladi va matnning kommunikativ vazifasini belgilaydi. Ikkinchi muhim usul – jarayonli yozish bo'lib, bunda talaba dastlabki variantni yaratgach, uni qayta ko'rib chiqadi, mantiqiy bo'shliqlarni to'ldiradi, dalillarni aniqlashtiradi, leksik va sintaktik vositalarni takomillashtiradi. Uchinchi usul – o'z-o'zini savollash texnikasi bo'lib, talaba yozuv davomida va undan keyin muayyan diagnostik savollar orqali matn sifatini baholaydi. Masalan: "Mening asosiy tezisim aniqmi?", "Har bir abzats bitta markaziy g'oyaga xizmat qilyaptimi?", "Xulosa butun matn mantig'ini yakunlayaptimi?". Bunday ichki savollar metakognitiv monitoringning konkret metodik ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi [2], [5].

Ogʻzaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishda ham metakognitiv strategiyalar muhim oʻrin tutadi. Chunki ogʻzaki nutq real vaqt sharoitida kechadi va bunda talaba bir vaqtning oʻzida mazmun, til shakli, auditoriya reaksiyasi hamda nutq ravonligini boshqarishga majbur boʻladi. Shu sababli ogʻzaki nutqda metakognitiv nazorat koʻpincha tezkor monitoring koʻrinishida yuzaga chiqadi. Tadqiqotlarda metakognitiv usullar qoʻllangan oliy taʼlim sinflarida talabalarning kommunikativ ishtiroki va speaking koʻrsatkichlari sezilarli yaxshilangani qayd etilgan [7]. Biroq ayrim izlanishlar ogʻzaki natijaga taʼsir bir xil boʻlmasligi, u vazifa turi, til darajasi va oʻlchash mezonlariga bogʻliq ekanini koʻrsatadi [8]. Bu holat metakognitiv yondashuvni mutlaq vosita sifatida emas, balki aniq didaktik sharoit bilan uygʻunlashganda yuqori samara beruvchi metodologik tizim sifatida tushunish zarurligini anglatadi.

Ogʻzaki nutqda metakognitiv strategiyalarni qoʻllash uchun bir necha bosqichli metodik modelni taklif etish mumkin. Birinchi bosqich — oldindan rejalashtirish boʻlib, bunda talaba chiqish maqsadini aniqlaydi, asosiy tayanch iboralarni tanlaydi, nutqning taxminiy tuzilishini ishlab chiqadi va mavzu boʻyicha muhim gʻoyalarni iyerarxik tartibga soladi. Ikkinchi bosqich — nutq jarayonida monitoring boʻlib, bunda talaba oʻz fikrining izchilligini, grammatik shakllarning toʻgʻriligini, auditoriya bilan aloqaning saqlanishini kuzatadi. Uchinchi bosqich — nutqdan keyingi refleksiya boʻlib, bunda audio yoki video yozuv asosida oʻz chiqishini tahlil qilish, kuchli va sust tomonlarni ajratish, kelgusi chiqish uchun shaxsiy strategik tavsiyalar ishlab chiqish amalga oshiriladi. Ayniqsa, oʻz chiqishini qayta tinglash yoki koʻrish usuli talabalarda oʻz nutqiga tashqi koʻz bilan qarash malakasini shakllantirib, metakognitiv xabardorlikni kuchaytiradi [7], [9].

Metakognitiv strategiyalar asosida nutq kompetensiyasini rivojlantirishda oʻqituvchining roli ham tubdan oʻzgaradi. Anʼanaviy modelda oʻqituvchi tayyor bilimni yetkazuvchi va xatolarni tuzatuvchi subyekt sifatida koʻrilsa, metakognitiv modelda u

talabani o‘z fikrlash jarayonini kuzatishga undovchi fasilitator vazifasini bajaradi. O‘qituvchi talabalarga faqat “nima qilish kerak”ni emas, balki “nega aynan shunday qilish kerak”, “qaysi strategiya qaysi vaziyatda samaraliroq”, “xatoni qanday aniqlash va tuzatish mumkin” kabi savollar asosida yo‘l-yo‘riq beradi. Bu yondashuv o‘quvchi mustaqilligini oshiradi, o‘z-o‘zini boshqarish madaniyatini shakllantiradi va nutqni o‘rganishni ichki motivatsiya bilan bog‘laydi [4], [9].

Talabalarda metakognitiv strategiyalarni shakllantirish uchun dars jarayonida maxsus topshiriq tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, yozma nutq uchun reja-jadval tuzish, draft va redaksiya bosqichlarini ajratish, o‘z-o‘zini tekshirish varaqalari, peer review asosidagi tahlil, reflektiv kundalik yuritish kabi usullar samarali hisoblanadi. Og‘zaki nutq uchun esa tayanch savollar asosida mini-taqdimotlar, videoanaliz, nutqdan keyingi o‘zini baholash blankalari, juftlik va guruhli muhokamalarda strategik kuzatuv kabi metodlar qo‘llanishi mumkin. Bunday topshiriqlar talabaning e‘tiborini natijadan jarayonga ko‘chiradi. Ya’ni talaba faqat “to‘g‘ri javob”ni topishga emas, balki o‘sha natijaga qanday fikrlash yo‘li bilan kelganini anglashga o‘rganadi. Bu esa metakognitiv madaniyatning shakllanishi uchun zarur pedagogik asosni yaratadi [2], [4].

Shuningdek, metakognitiv strategiyalarni qo‘llash talabalarning tanqidiy fikrlashi, reflektiv tafakkuri va akademik mustaqilligini rivojlantiradi. Nutq kompetensiyasi aslida izolyatsiyalangan til hodisasi emas; u tafakkur madaniyati, mantiqiy tahlil, dalillash, pozitsiya bildirish va fikrni kommunikativ jihatdan moslashtirish qobiliyatlari bilan uzviy bog‘liq. Shu bois metakognitiv yondashuv yordamida rivojlantirilgan yozma va og‘zaki nutq ko‘nikmalari talabaning umumiy intellektual salohiyatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, akademik yozuv, munozara, prezentatsiya, esse, tahliliy matn va og‘zaki chiqish kabi faoliyat turlarida metakognitiv mexanizmlar nutq sifatining ichki boshqaruv tizimiga aylanadi [10].

Demak, metakognitiv strategiyalar asosida nutq kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-metodik mohiyati talabanning tilni o‘zlashtirish jarayonini ongli boshqaruv obyektiga aylantirish bilan belgilanadi. Bu yondashuv talabanning yozma va og‘zaki nutqida mazmuniy izchillik, mantiqiy puxtalik, uslubiy moslik, refleksiv tahlil va o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini kompleks ravishda shakllantiradi. Shunday ekan, oliy ta’lim muassasalarida nutqni o‘qitish metodikasini metakognitiv strategiyalar bilan boyitish bugungi ta’limning nazariy va amaliy ehtiyojlariga to‘liq javob beradigan dolzarb yo‘nalishlardan biri sanaladi [5], [7].

XULOSA

Mazkur tadqiqotda metakognitiv strategiyalar asosida talabalarning yozma va og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari tizimli ravishda yoritildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, metakognitiv yondashuv ta’lim jarayonida talabanning faolligini oshirib, uni o‘z bilish faoliyatini ongli ravishda boshqaruvchi subyektga aylantiradi. Ayniqsa, rejalashtirish, monitoring va baholash kabi metakognitiv komponentlar nutq faoliyatining mantiqiy izchilligi, mazmuniy aniqligi va kommunikativ samaradorligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Yozma nutqni rivojlantirish jarayonida metakognitiv strategiyalar talabalarda matn yaratishga jarayonli yondashuvni shakllantiradi. Natijada ular fikrni tizimli ifodalash, dalillarni asoslash, matnni qayta ko‘rib chiqish va tahrirlash kabi ko‘nikmalarni egallaydi. Bu esa yozma ishlarning sifatini oshirish bilan birga, akademik yozuv madaniyatining shakllanishiga olib keladi. Og‘zaki nutq faoliyatida esa metakognitiv nazorat va refleksiya talabanning nutq jarayonini real vaqt rejimida boshqarish, auditoriya bilan samarali muloqot o‘rnatish va nutqni kommunikativ vaziyatga moslashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatadiki, metakognitiv strategiyalarni qo‘llash talabalarda refleksiv tafakkur, tanqidiy fikrlash va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini

rivojlantiradi. Bu esa nafaqat nutq kompetensiyasining shakllanishiga, balki shaxsning umumiy intellektual salohiyatining yuksalishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Metakognitiv yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida talaba o'z xatolarini anglaydi, ularni tahlil qiladi va kelgusida bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqadi, bu esa uning o'quv mustaqilligini ta'minlaydi.

Olib borilgan ilmiy tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi: birinchidan, metakognitiv strategiyalar yozma va og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishning samarali metodologik vositasi hisoblanadi; ikkinchidan, nutq faoliyatini shakllantirish jarayonida metakognitiv rejalashtirish, monitoring va baholash mexanizmlarini tizimli qo'llash zarur; uchinchidan, nutqni o'qitish metodikasini metakognitiv yondashuv asosida takomillashtirish talabalarning kommunikativ kompetensiyasini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi.

Shu bilan birga, mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarur. Xususan, metakognitiv strategiyalarning turli fanlar kesimida qo'llanishi, individual farqlar bilan bog'liqligi hamda raqamli ta'lim muhitida metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish istiqbollari alohida ilmiy izlanishlarni talab etadi.

Umuman olganda, metakognitiv yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning yozma va og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi hamda zamonaviy ta'lim talablariga javob beruvchi, mustaqil va reflektiv fikrlay oladigan shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Flavell, J. H. Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive-developmental inquiry. *American Psychologist*, 1979.
2. Schraw, G., Dennison, R. S. Assessing metacognitive awareness. *Contemporary Educational Psychology*, 1994. MAI tavsifi va ikki komponentli model.

3. Young, A., Fry, J. D. Metacognitive awareness and academic achievement in college students. *Journal of the Scholarship of Teaching and Learning*, 2008.
4. O'Malley, J. M., Chamot, A. U. *Learning Strategies in Second Language Acquisition*. Cambridge University Press, 1990.
5. Lv, F., Chen, H. A study of metacognitive-strategies-based writing instruction. 2010.
6. Cer, E. The effect of the metacognitive strategy on writing skills. 2019.
7. Shin, M. H. Improving English speaking skills in a college general English class through metacognitive methods. 2024.
8. Zhang, W. Understanding individual differences in metacognitive strategies and speaking performance. *Frontiers in Psychology*, 2022.
9. Zimmerman, B. J. A social cognitive view of self-regulated academic learning. *Journal of Educational Psychology*, 1989.
10. Negretti, R. Metacognition in student academic writing. 2012.

Development of dialogic speech in third-grade students in a multi-ethnic educational environment

Marjona Jamoliddinova Khabibullo qizi

Phd student, Namangan Pedagogical Institute

mmarjona456@gmail.com

Abstract

4. Xotirasi yaxshilanadi va rivojlanadi- ko'p badiiy kitoblarni o'qib berish yoki ko'proq mutolla qilishi orqali bolada doimiy xotira shakllanadi, diqqati ortadi.

5. Bolalarning ijtimoiy hayot hodisalari, kishilar mehnati bilan tanishish doirasi kengayadi.

XULOSA. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish sohasidagi psixologik, pedagogik tadqiqotlarni tahlil qilish quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi: - nutqni rivojlantirish-bolaning individual psixik rivojlanishida markaziy o‘rin tutuvchi ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirishining murakkab, ko‘p omilli jarayonidir; Nutqni rivojlantirish-bu malakali pedagogik rahbarlikni nazarda tutuvchi ijodiy jarayon, lekin u stixiyali jarayon emas, bola nutqini rivojlantirish jarayonini boshqaruvchi shaxs bu pedagog, u jarayonning turli yosh bosqichlaridagi qonuniyatlarini, mexanizmlarini, o‘ziga xosliklarini bilishi, nutqiy rivojlantirishning o‘ziga xosliklarini ko‘ra olishi va bolaning individualligini hisobga olgan holda, uning nutqiga ta’sir ko‘rsatishning eng samarali yo‘llarini tanlashi lozim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi “Oila” to‘g‘risidagi bobi.
2. Shavkat Mirziyoyev Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilish. Toshkent
3. “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” 2019-y 8-may
4. “Ilk qadam” davlat dasturi 2020-y
5. Qodirova F., Qodirova M. Bolalar nutqini o‘stirish nazariyasi va metodikasi. (o‘quv qo‘llanma)
6. Xodjayev B. Umumiy Pedagogika nazariyasi va amaliyoti Toshkent 2017-y
7. Abdullayeva Q. va boshqalar. Savod o‘rgatish darslari. T., “Tarbiyachi”, 2017-y
8. D.R. Babayeva. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). T.: «Barkamol fayz media», 2018-y,
9. www.lex.uz

THE ROOTS OF THE HORSEMAN IMAGE IN FOLK ORAL CREATIVITY AND TRADITIONAL EPIC THOUGHT

Zarnigor Oktamovna Qobilova

Assistant at Samarkand State Pedagogical Institute

Abstract: The image of the horseman in traditional epic thinking is one of the key artistic symbols that embodies the historical memory of the people, their social ideals, and aesthetic views. The mythological and epic foundations of this image hold a significant place in the oral traditions of Turkic peoples. In particular, the horseman is interpreted as a representation of qualities such as heroism, courage, freedom, and loyalty. In epic works, special attention is given to the inseparable connection between the horseman and the horse, presented as a unified artistic model. It is argued that in epic thinking, the image of the horseman is not only a symbol of heroism but also an expression of national spirit and worldview.

Keywords: horseman image, epic thinking, horse image, courage, loyalty, oral folk art, unity of hero and horse, mythological roots, ideal hero model.

CHAVANDOZ OBRAZINING XALQ OG‘ZAKI IJODI VA AN‘ANAVIY EPIK TAFAKKURIDA ILDIZLARI

Zarnigor O‘ktamovna Qobilova

Samarqand davlat pedagogika instituti assistenti

zarnigorqobilova632@gmail.com

Annotatsiya: Chavandoz obrazi an‘anaviy epik tafakkurda xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy ideallari va estetik qarashlarini mujassamlashtirgan muhim badiiy timsollardan biridir. Bu obrazning mifologik va epik asoslari turkiy xalqlar og‘zaki ijodida o‘z o‘rniga ega. Aynan, chavandoz obrazi qahramonlik, jasorat, erkinlik va sadoqat kabi fazilatlarining ifodachisi sifatida talqin etildi. Epik asarlarda chavandoz va ot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik, bir butun badiiy model sifatida namoyon bo‘lishiga

e'tibor qaratildi. Epik tafakkurda chavandoz obrazi nafaqat qahramonlik timsoli, balki milliy ruhiyat va dunyoqarashning ifodasi ekanligi asoslab berildi.

Kalit soʻzlar: chavandoz obrazi, epik tafakkur, ot obrazi, jasorat, sadoqat, xalq ogʻzaki ijodi, qahramon va ot birligi, mifologik ildizlar, ideal qahramon modeli.

Зарнигор Ўктамовна Кобилова

Ассистент Самаркандского государственного педагогического института

Аннотация: Образ всадника в традиционном эпическом мышлении является одним из важных художественных символов, воплощающих историческую память народа, его социальные идеалы и эстетические взгляды. Мифологические и эпические основы этого образа занимают особое место в устном творчестве тюркских народов. В частности, образ всадника интерпретируется как выражение таких качеств, как героизм, мужество, свобода и преданность. В эпических произведениях особое внимание уделяется неразрывной связи между всадником и конём, которая проявляется как единая художественная модель. Обосновано, что в эпическом мышлении образ всадника является не только символом героизма, но и отражением национального духа и мировоззрения.

Ключевые слова: образ всадника, эпическое мышление, образ коня, мужество, преданность, устное народное творчество, единство героя и коня, мифологические корни, модель идеального героя.

Epik tafakkur — bu xalqning koʻp asrlik tajribasi, qadriyatlari va ideallarini badiiy shaklda ifodalovchi murakkab va serqirra tafakkur tizimidir. Epik tafakkurda chavandoz timsoli — qahramonlik, erkinlik va ilohiy kuch bilan bogʻlangan markaziy obrazlardan biridir. Bu timsol faqat ot ustidagi jangchi emas, balki kosmik tartibni saqllovchi, ruhiy sayohatchi va qabila himoyachisi sifatida talqin qilindi. Chavandoz obrazi ildizlari uch asosiy manbaga borib taqaladi. Mifologik tasavvurlar (otning muqaddasligi), tarixiy-real hayot (koʻchmanchi otlig jamiyat), epik badiiy tafakkur (qahramonlik ideali).

Qadimgi turkiy qarashlarda chavandoz osmon (Tangri) va yer o'rtasidagi uyg'unlikni ifodalaydi, tartib (kosmos)ni himoya qiluvchi kuch sifatida ko'rildi, yovuz kuchlarga qarshi kurashuvchi ilohiy vakildir. Ushbu talqinda — oddiy inson emas, balki kosmik vazifaga ega qahramondir. Aynan, ot obrazi epik tafakkurda o'z rivojlanish bosqichiga ega. Qadimgi mifologiyada ot boshqa bir olamga o'tishda vositachi, ajdodlar ruhi bilan aloqa qiluvchi va chavandoz esa ruhlar olamining tadqiqotchisi, quyosh va osmon bilan bog'langan, osmon va yer o'rtasidagi harakatni ta'minlovchi timsol tasviri ot obrazini epik tafakkurdagi ildizlarini qadimiy ekanini tasvirlaydi.

Qadimgi jamiyatda ot ba'zan totem sifatida e'zozlandi. Qurbonlik marosimlarida ishlatilgan, hukmdorlar bilan birga dafn etilgan. Bu xususiyatlar o'ni oddiy hayvondan ko'ra mifologik mavjudot darajasiga ko'tardi va o'ning jamiyatdagi muqaddas va ijtimoiy ahamiyatini namoyon qildi. Masalan: qadimgi yunon mifologiyasida Pegasus — ilohiy qanotli ot sifatida mashhur. Bu ot okeanning manbasida tug'ilganligi uchun Pegasus deb nomlangan. Pegasus qadimgi yunon mifologiyasida Olimp tog'idagi Zevsga momoqaldiroq va chaqmoqni yetkazgan deb talqin qilindi. Chavandoz qadimgi turkiy jamiyatda qabilaning asosiy himoyachisi, jangchi va yetakchi (alp), jasorat va sharaf timsoli bo'lib xizmat qildi. Bu obraz keyinchalik "Alpomish", "Go'ro'g'li" kabi dostonlarida yanada mukammal ko'rinishga ega bo'ldi. O'zbek va turkiy xalqlar epik merosida chavandoz obrazi mukammal shaklga ega bo'ldi. "Alpomish" dostonida qahramon va uning oti (Boychibor) ajralmas birlikda tasvirlandi. "Go'ro'g'li" dostonida chavandoz — erkinlik va adolat uchun kurashuvchi obraz. Ot va chavandoz o'rtasidagi bog'liqlik — do'stlik, sadoqat va ruhiy birlik ramzidir.

*Otdur yigitning yo'ldoshi,
O'g'uldir davlatning boshi,
Qiz ham bo'lsa ko'ngul hushi,*

Zuryod kerakdur yigita...[3; 58-bet]¹

Bu bosqichda chavandoz obrazi faqat jangchi emas, balki axloqiy idealga aylanadi. O‘zbek va turkiy xalqlar epik merosida chavandoz obrazi mukammal shaklga ega bo‘ldi. Go‘ro‘g‘lining oti G‘irotning g‘ayritabiiy xususiyatlari, ko‘pincha oddiy ot chegarasidan chiqib ketadi. Juda tez va chidamli, ba‘zan uzoq masofani qisqa vaqtda bosib o‘tadi, xavfni oldindan sezadi. Bu xususiyatlar ot obrazining mifologik ildizlari bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. “Go‘ro‘g‘li” dostonida ot obrazi, G‘irot timsolida sodiq do‘st va yordamchi, qahramon bilan ajralmas birlik, g‘ayritabiiy kuch sohibi, chuqur ramziy ma’noga ega badiiy obraz sifatida namoyon bo‘ldi. Mifologik tafakkurda chavandoz va ot ajralmas birlik, ular bir butun mavjudot sifatida tasavvur qilinadi. Ot — kuch, chavandoz — aql va iroda timsoli bo‘lgan. Bu birlik esa ideal qahramon modelini yaratadi. O‘z navabatida ramziy va falsafiy ma’nolarga e’tibor qarataylik. Erkinlik va harakat, hokimiyat va yetakchilik, ruhiy yuksalish va izlanish, tabiat bilan uyg‘unlikda an’anaviy epik tafakkurda chavandoz obrazini ko‘pfunksiyali vazifasini ko‘rsatadi. Qadimgi turkiy mifologiyada chavandoz timsoli — ko‘p qirrali, kosmik va ijtimoiy mazmunga ega obraz bo‘lib shakllandi. U dastlab jangchi, ruhiy bilan kuchlar bilan aloqada, yetakchi va ruhiy sayohatchi sifatlarini o‘zida mujassam etib, keyingi epik tafakkur va dostonlar uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. “Ot madaniyati qadimgi kishilarning turmush-tinchligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, otlarni ish hayvoni sifatida xo‘jalikda foydalanish, xonakillashtirish davomida yuzaga kelgan.

Arxeologiya qazilmalarida aniqlangan yarmi ot, yarmi odam sifat ishlangan rasmlar, hali-haligacha ekin maydonlari, polizlarda otning kala suyagining qo‘riqchi sifatida qo‘yilishi va boshqalar ibtidoiy inson ongida mavjud bo‘lgan ot madaniyati haqidagi e’tiqodning timsoli hisoblanadi”². Ot obrazi epik tafakkurda quyidagilarni

¹Xorazm dostonlari. “Go‘ro‘g‘li” dostoni. “Xorazm” nashriyoti. Urganch – 2004 yil.

² H. K. Nazimova. Mif va afsonalarda xayoliy obrazlarning tahlili // International scientific-online conference. <https://doi.org/10.52281.153-154> bet.

anglatadi erkinlik va cheksizlik, tezlik va qudrat, sadoqat va do‘stlik, qahramonlik va sharaf.

Epik tafakkurda ot obrazi — turkiy va o‘zbek dostonlarining markaziy, ko‘p qatlamli timsollaridan biri bo‘lib, u qahramonlik, sadoqat va erkinlik g‘oyalarini mujassam etadi. Qahramonlik va jangovar timsoli esa qahramonning asosiy jangovar hamrohi, tezlik va g‘alaba ramzi, janglarda ustunlik beruvchi kuch sifatida tasvirlangan. Bu jihat keyinchalik epik dostonlarda yanada rivojlangan. Ot bu yerda oddiy hayvon emas, balki qahramonning ruhiy va jangovar hamrohi, ba‘zan esa uning “ikkinchi qiyofasi” sifatida namoyon bo‘ladi. Qadimigi epik tafakkurda qahramon va ot birligi ajralmas, qahramonning kuchi ot bilan uyg‘unlashadi, ot xavfni oldindan sezadi, yo‘l ko‘rsatadi, ular o‘rtasida ruhiy aloqa mavjuddir. Masalan: Alpomish dostonida Boychibor qahramonning sodiq do‘sti va himoyachisi sifatida tasvirlangan.

*Quloqlari g‘alchoq-g‘alchoq,
Bosgan ering qiyirchoq
Ot chopdi cho‘llar ozilib,
Boychibor korson tuyog‘i,
Erning betiga qazilib.
Banot chirgidan oqqan ter,
Tuyoqning betiga izilib,
Ketayotir Boychibor,
Quloch bo‘yni cho‘zilib,
Juftagi borar suzilib.....[2; 85-bet]³*

Boychibor — qahramonning ajralmas hamrohi. Boychibor oddiy ot emas, balki aqlli, sezgir va sodiq hamroh. Qiyin vaziyatlarda qahramonni qutqaradi va ba‘zan u

³ Alpomish. O‘zbek xalq og‘zaki dostoni. “Fan” nashriyoti. Toshkent – 2018.

oldindan xavfni sezuvchi kuch sifatida tasvirlanadi. Bu orqali epik tafakkurda qahramon va otning ruhiy birligi namoyon bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkin. Epik tafakkurda ot obrazi — qahramonlik dunyoqarashining markaziy unsuri. U nafaqat voqealar ishtirokchisi, balki ramziy, mifologik va estetik ma’nomalarni o‘zida mujassam etgan murakkab obrazdir. Ot orqali xalqning tarixiy xotirasi, hayot tarzi va ideal qahramon modeli ifodalanadi. Alpomishdagi chavandoz obrazi turkiy epik an’ananing davomidir. Bu jihat qadimgi mifologik ot timsoliga borib taqaladi. Keyingi dostonlarda ham shu model takrorlanadi. Qahramon + ot = mukammal epik birlik sifatida mukamallashdi. Natijada, u o‘zbek xalq epik merosida eng mukammal chavandoz arxetipi darajasiga ko‘tarilgan. Ot bilan bog‘liq miqlar nomlari turli madaniyatlarda xilma-xil bo‘lsa-da, ularni birlashtiruvchi jihat — otning ilohiy, qahramonlik va vositachilik funksiyasidir. Bu miqlar keyinchalik epik dostonlar va folklorda boy badiiy obrazlarga asos bo‘lib xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdumurod Tilovov. Epik ot obrazining tarixiy asoslari // Uzbekistan: Language and Culture 2022-yil 2(1).
2. Alpomish. O‘zbek xalq og‘zaki dostoni. “Fan” nashriyoti. Toshkent – 2018.
3. Xorazm dostonlari. “Go‘ro‘g‘li” dostoni. “Xorazm” nashriyoti. Urganch – 2004 yil.
4. I. Jovliyev. Go‘ro‘g‘li turkumidagi dostonlarning o‘rganilishi // www.ares.uz.
5. K. S. Isayev “Alpomish” dostoni – o‘zbek folklorshunosligining tarixiy ildizi // Oriental Art and Culture Methodical Journal. 2022-yil 4-dekabr.

Formation of Modern Competencies in Primary School Students through the STEAM Approach

Ismailova Lalezar Yazmuradovna

4th-year Student Tashkent International University of Chemistry

Abstract. This article scientifically analyzes the development of students' independent learning, critical thinking, and creative approach skills in the STEAM educational process. The article highlights the opportunities to comprehensively develop students' knowledge, skills, and competencies through the use of an integrative approach in the educational process. Additionally, the importance of modern pedagogical technologies in revealing students' individual abilities, guiding them toward practical activities, and developing their innovative thinking is substantiated.

Keywords. STEAM, stream, technology, engineering, research, motivation, functional, project, education, methodology, pedagogical, resource, didactic.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida STEAM yondashuvi orqali zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish

Ismailova Lalezar Yazmuradovna

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Steam ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil bilim olish, tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari ilmiy asosda tahlil etilgan. Ta'lim jarayonida integrativ yondashuvdan foydalanish orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini kompleks shakllantirish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, o'quvchilarning individual qobiliyatlarini namoyon etish, amaliy faoliyatga yo'naltirish hamda innovatsion fikrlashini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar. steam, stream, texnika, muhandislik, tadqiqot, motivatsiya, funksional, loyiha, ta'lim, metodika, pedagogik, resurs, didaktik.

Аннотация. В данной статье проводится научный анализ развития у учащихся навыков самостоятельного обучения, критического мышления и творческого подхода в рамках образовательного процесса STEAM. В статье освещаются возможности всестороннего развития знаний, навыков и компетенций учащихся посредством применения интегративного подхода в образовательном процессе. Кроме того, обосновывается важность современных педагогических технологий в раскрытии индивидуальных способностей учащихся, ориентации их на практическую деятельность и развитии их инновационного мышления.

Ключевые слова. STEAM, поток, технологии, инженерия, исследования, мотивация, функциональный, проект, образование, методология, педагогический, ресурс, дидактический.

Bugungi ta'lim jarayonlarida o'quvchilarning o'z-o'ziga bilimlarni izlab topish, mustaqil egallash, zarur bo'ladigan axborotlarni to'plash, fikrni ilgari surish, yakuniy xulosa qilish ko'nikmalarini o'zida jamlaydigan jarayonlardan foydalanish muhim ahamiyatga egadir. O'quvchilar o'z imkoniyatini, qobiliyatini, layoqatini, qiziqishlarini ob'ektiv baholab, to'g'ri qaror qabul qila olish jarayonida, ta'lim jarayonlari, o'quvchilarni o'z-o'ziga ma'lum qobiliyatni, qiziqishlarni egallashda yordam berishi lozim. O'quvchilarda bunday shaxsiy qobiliyatlar o'quv loyihalarida o'zini, ijodkor, tadqiqotchi sifatida ko'rish imkoniyatlarida shakllanadi.

Shunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi F-5712-sonli Farmoni asosida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi"da hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida STEAM ta'limni joriy qilish yuzasidan alohida vazifalari belgilandi. Bugun ta'limning bu – STEM / STEAM / STREAM yangi yondashuvlari rivojlangan davlatlarda keng qo'llanilib, jahon hamjamiyati tomonidan ijobiy baholanmoqda. Fan, texnologiya,

muhandislik va matematika fanlari birgalikda o'quvchilar qobiliyatlarini rivojlantirishi STEM deb nomlanadi. STEM ta'limi ilmiy usullardan, texnik qo'llanmalardan, matematik modellashtirish va muhandislik dizaynidan foydalanishga imkon beradi. Bu o'quvchining innovatsion fikrlash, XXI asrning qobiliyatlari, ko'nikmalarini shakllantirishga olib keladi.

Boshlang'ich ta'limda STEAM yondashuvi quyidagi asosiy vazifalarni bajarishga qaratilgan:

1. O'quvchilarda muammoli fikrlash va ilmiy yondashuv asosida muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish.
2. Fan, texnika, muhandislik, san'at va matematika bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish.
3. Jamoaviy ijodkorlik va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish.
4. Ijodiy, tadbirkorlik va innovatsion fikrlashni rag'batlantirish.
5. O'quvchilarni texnik va innovatsion sohalarda kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlash.
6. Dizayn asoslarini anglash va amaliyotda qo'llash.
7. Tanqidiy fikrlashni shakllantirish.

“Sayyoralar” mavzusini STEAM asosida o'rganish

Boshlang'ich sinflarda “Sayyoralar” mavzusini STEAM texnologiyasi asosida o'rganish integrativ yondashuvni ta'minlaydi. Har bir komponent alohida vazifani bajaradi:

➤ **S** (Science – Fan): O'quvchilar nazariy ma'lumotlar bilan tanishtiriladi. Sayyoralar nomlari, Yerning boshqa sayyoralardan farqi, unda hayot mavjudligi va osmon jismlari bilan bog'liqligi o'rganiladi.

➤ **T** (Technology – Texnologiya): Teleskop orqali sayyoralarni kuzatish, ularning Yerga nisbatan farqli jihatlari haqida umumlashtirilgan ma'lumot beriladi.

O'quvchilarga quyidagi savollarga javob topish topshiriladi:

1. Oy va Yer orasidagi masofa taxminan necha kilometr?
2. Qaysi sayyoralarda suv va havo mavjud?
3. Boshqa sayyoralar Yerga nisbatan qanday farqlarga ega?

➤ **E** (Engineering – Muhandislik): Qog‘oz, loy yoki plastilindan sayyoralar modellari yasash topshiriladi.

➤ **A** (Arts – San‘at): O‘quvchilar she‘r, hikoya yoki esse yozadilar, daftarlariga sayyoralar rasmini chizadilar.

➤ **M** (Mathematics – Matematika): Globusning aylanish o‘qi, shimoliy va janubiy qutblar hamda ekvator o‘lchamlarini matematik nuqtai nazardan hisoblash topshiriladi.

STEAM yondashuvi o‘quvchilarda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, ilmiy tadqiqot va texnik taraqqiyot konsepsiyalarini anglash imkonini beradi. “Sayyoralar” mavzusini STEAM asosida o‘rganish orqali bolalarda ilmiy izlanish, ijodkorlik, muhandislik tafakkuri va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi. Bu esa ta‘limning integrativ va innovatsion rivojlanishiga xizmat qiladi.

STEAM ta‘lim muhitida bolalar nafaqat nazariy bilimlarga ega bo‘ladilar, balki ularni darhol amaliyotda qo‘llashni ham o‘rganadilar. Bu jarayon o‘quvchilarda bilimni faqat yodlash emas, balki uni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantiradi. Natijada, ular ulg‘ayganlarida murakkab muammolarga — masalan, atrof-muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o‘zgarishi kabi masalalarga — turli sohalardagi bilimlarni birlashtirish va jamoaviy hamkorlik orqali yechim topish mumkinligini anglaydilar. STEAM yondashuvi an‘anaviy sinf dars tizimidan loyihaviy faoliyatga o‘tishni taqozo etadi. Bu esa fundamental bilimlarni funksional bilimlarga aylantirish, ularni amaliyotda qo‘llash, fanlararo integratsiyani kuchaytirish va muammolarni hal qilishning yangicha yo‘llarini izlashga yo‘naltiriladi. Zarurat tug‘ilganda, o‘quvchilar yangi kashfiyotlar qilishga ham undaladi. Masalan, biologiya fanida an‘anaviy dars jarayonida moddalar hujayraga ta‘siri og‘zaki yoki yozma tarzda o‘rganilib, yod olishga

asoslanadi. STEAM ta'limida esa bu jarayon kengaytiriladi: o'quvchilar moddalarni sintez qilish bilan birga ularning tirik organizmda qanday ta'sir ko'rsatishini amaliy tajribalar orqali kuzatish imkoniga ega bo'ladilar. Bu esa nazariy bilimni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

Kasrlar loyihasi. Ushbu loyihada ta'lim oluvchilar atrofdagi kishilarning kunlik hayotlaridagi masalalarni hal qilishda kasrlarning ahamiyatini anglashga harakat qilishadi, masalan, "Oshpaz kasrlardan foydalanadimi?" savoli ustida izlanishadi.

"Harakatdagi matematika"

Loyihada chiziqli tenglamalarni tushuntirish uchun sinf ta'lim oluvchilari matematika va raqsni birlashtirishadi. Har bir raqs musiqaga xoreografik tarzda moslashtirilgan 9 ta tenglamadan iborat. Ta'lim oluvchilar o'z raqslarini videoga olishadi yoki rasmga tushirishadi va ota-onalar va sinfdoshlari uchun taqdimot tayyorlashadi.

Loyiha bosqichlarini belgilab olgandan so'ng har bir o'quvchining, guruhning alohida, shuningdek, ularning hamkorlikdagi, o'zaro fikr almashib harakat qilishiga asoslangan vazifalarini aniqlashtirish lozim.

Xulosa qilib aytganda darslarning muvaffaqiyatli tashkil qilinishi va samarali bo'lishi bevosita o'qituvchining kreativ fikrlashi, zamonaviy texnologiyalarni egallaganligi va ularni o'z amaliyotiga joriy eta olishiga bog'liq bo'ladi. STEAM metodikasini o'qituvchilarga o'rgatishda bosqichma-bosqich yondashuvdan tashqari ichki motivatsiya va tashabbus ham muhim o'rin tutadi. O'qituvchilar o'z kasbiga fidoyi bo'lib, bolalarning zamonaviy ko'nikmalarini shakllantirishga chin dildan intilsalar, o'quvchilarning natijalari yorqin va istiqbolli bo'ladi. Shuningdek, har bir pedagog o'z faoliyati natijalarini doimiy ravishda tahlil qilib, o'zini takomillashtirib borishni unutmasligi zarur. O'zini doimiy rivojlantirish, pedagogik monitoring tizimini joriy etish, metodik kengashlarda faol ishtirok etish, ilmiy-amaliy konferensiyalarda qatnashish – bular ham ustoz-o'qituvchilarning bilim darajasini oshirishda hamda ilg'or

tajribani jamlashda asosiy omil hisoblanadi. O'qituvchilar uchun doimiy ravishda STEAM metodikasi bo'yicha ochiq darslar, amaliy seminar-trening-lar, tadqiqot ishlarini tashkil qilish ham muhim hisoblanadi. Quyidagilar, ya'ni raqamli texnologiyalardan foydalanish kompetensiyasini mustahkamlash, zamonaviy o'quv dasturlarini o'zlashtirish, multimedia qurilmalari yordamida o'quv materiallarini yoritish, fanlararo darslarda interaktiv usullardan samarali foydalanish, loyiha asosida bilimlarni joriy etish orqali o'qituvchilar o'z bilim va ko'nikmalarini yanada boyita oladilar. Bunda har bir pedagog STEAM metodikasi asosida loyihalangan mashg'ulotlarni amaliyotda sinab ko'rish, natijalarni tahlil qilish va ilg'or uslublarni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, tashkilot rahbarlari tomonidan STEAM metodikasiga oid doimiy metodik yordam ko'rsatib borilishi, kerakli didaktik materiallar va resurslar bilan ta'minlanishi, ilmiy-nazariy hamda metodik adabiyotlar yetkazilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mamatmurotova M. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA STEAM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH ORQALI O'QUVCHILARDA KASBIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH. Barqaror taraqqiyot va rivojlanish tamoyillari. 20(7)116-119 b
2. M. Pardayeva, M. Ergasheva. Milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etish: Biologiya fani o'qituvchi va metodistlari uchun metodik qo'llanma. Toshkent: 2022. 15-26b
3. Saloxitdinova N.M. TABIIY FANLAR DARSLARIDA STEAM TA'LIMINI JORIY QILISH, "Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnali 2(10)2024.57-b
4. <https://arm.sammo.uz/library/download/789>
5. Aziza A, Qudratova Sh(2026) Steam ta'lim texnologiyasini boshkang'ich ta'limda qo'llashning me'yoriy uslubiy asoslari. Maktabgacha va maktab ta'limi Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal, (2)1, 867-870.

**BIOMORPHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE INDIGOFERA
PLANT AND THE BIOTECHNOLOGICAL SIGNIFICANCE OF NATURAL
DYES DERIVED FROM IT: MEDICAL AND ECOLOGICAL PROSPECTS**

Tursunova Dilafruz Zoirjon qizi

Master's Student (2nd year), Biotechnology Faculty of Natural Sciences
Fergana State University

Abstract. This article analyzes the biomorphological characteristics of *Indigofera tinctoria* and the biotechnological significance of natural indigo dyes extracted from it. The ecological purity of plant-based natural dyes, their potential medical applications, and their prospects in sustainable production are scientifically discussed. The advantages of indigo dyes in industry, pharmaceuticals, and environmental protection are also highlighted.

Keywords: *Indigofera tinctoria*, biomorphology, natural dyes, biotechnology, medical application, ecological sustainability.

**BO‘YOQDOR INDIGOFERA O‘SIMLIGINING BIOMORFOLOGIK
XUSUSIYATLARI VA UNDAN OLINADIGAN TABIIY BO‘YOQLARNING
BIOTEXNOLOGIK AHAMIYATI: TIBBIY VA EKOLOGIK ISTIQBOLLAR**

Tursunova Dilafruz Zoirjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti
Biotexnologiya mutaxassisligi 2-kurs magistranti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada *Indigofera tinctoria* L. o‘simligining biomorfologik xususiyatlari, uning tarkibidan ajratib olinadigan tabiiy indigo bo‘yoqlarining biotexnologik ahamiyati tahlil qilingan. O‘simlik asosida olingan tabiiy bo‘yoqlarning ekologik tozaligi, tibbiy qo‘llanish imkoniyatlari hamda barqaror ishlab chiqarishdagi istiqbollari ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, indigo bo‘yoqlarining sanoat, farmatsevtika va atrof-muhitni muhofaza qilishdagi afzalliklari ko‘rsatib berilgan.

Kalit soʻzlar: Indigofera tinctoria, biomorfologiya, tabiiy boʻyoqlar, biotexnologiya, tibbiy qoʻllanilish, ekologik barqarorlik.

Tabiiy boʻyoqlar qadimdan insoniyat hayotida muhim oʻrin tutib keladi. Xususan, Indigofera tinctoria L. (boʻyoqdor indigofera) oʻsimligi ming yillardan buyon turli madaniyatlarda matolarni boʻyash, dorivor vositalar tayyorlash hamda kosmetikada qoʻllanilib kelinmoqda. Kimyo sanoatida sintetik boʻyoqlarning keng tarqalishiga qaramay, ekologik xavfsizlik, inson salomatligi va biologik xilma-xillikni muhofaza qilish zarurati tabiiy boʻyoqlarga boʻlgan qiziqishni yana kuchaytirmoqda. Shu nuqtai nazardan, boʻyoqdor indigoferaning biomorfologik xususiyatlarini chuqur oʻrganish va undan olinadigan tabiiy boʻyoqlarning biotexnologik ahamiyatini baholash dolzarb ilmiy vazifalardan biridir.

Indigofera turkumi dukkakdoshlar (Fabaceae) oilasiga mansub boʻlib, tropik va subtropik hududlarda keng tarqalgan. Oʻsimlik koʻp yillik buta yoki yarim buta shaklida oʻsadi. Uning poyasi tik, barglari murakkab patsimon, gullari esa pushti yoki binafsha rangda boʻladi. Mevalari dukkak boʻlib, 1–20 tagacha urugʻ hosil qiladi. Biomorfologik jihatdan moslashuvchanligi tufayli turli iqlim sharoitida oʻsishi mumkin.

Indigofera tinctoria oʻsimligidan olinadigan asosiy pigment — indigo glikozid indikan hisoblanadi. U barg va yosh novdalarda koʻp miqdorda toʻplanadi. Fermentativ gidroliz natijasida indikan indoksilga parchalanadi va oksidlanish orqali koʻk rangli indigo pigmentiga aylanadi. Biotexnologik usullar yordamida (fermentativ ekstraksiya, mikrobiologik oksidlanish) boʻyoqning sifatini oshirish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish mumkin.

Ayniqsa, *I. tinctoria* tropik mintaqalarda keng tarqalgan boʻlib, koʻp asrlardan buyon maxsus ekilib, indigo boʻyogʻini olishda asosiy manba sifatida yuqori baholanadi. Shu sababdan, tabiiy indigo boʻyoq ishlab chiqarishda eng ishonchli va samarali oʻsimlik sifatida *I. tinctoria* alohida oʻrin egallaydi.

Mazkur o‘simlik barglaridan olinadigan tabiiy bo‘yoq “indigo” nomi bilan mashhur. Indigo ko‘k rangini hosil qilish jarayoni barglarda mavjud maxsus kimyoviy birikmalar – indikan glikozidlarining gidrolizlanishi natijasida yuzaga keladi. Barglar suvga botirilgach, fermentativ gidroliz reaksiyasi sodir bo‘ladi va natijada indoksil (dastlab oq rangli modda) hamda glyukoza hosil bo‘ladi. Keyingi bosqichda eritma shamollatilganda indoksil oksidlanib, erimaydigan ko‘k rangli indigo pigmentiga aylanadi.

Bo‘yash jarayoni ham shu prinsiplarga asoslanadi: agar mato indoksilni o‘z ichiga olgan fermentatsion eritmaga botirilsa va keyin havoda quritilsa, indoksil oksidlanadi va mato yuzasida erimaydigan indigo hosil bo‘ladi. Shu tariqa matoga o‘ziga xos chuqur va bardoshli ko‘k rang beriladi. Indigoferadan olinadigan bu tabiiy pigment nafaqat estetik jozibasi, balki ekologik tozaligi va barqarorligi tufayli ham bugungi kunda yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Indigoferadan olingan tabiiy bo‘yoqlar:

- Sanoatda: to‘qimachilik mahsulotlarini bo‘yashda ekologik xavfsiz alternativ sifatida qo‘llanadi;
- Farmatsevtikada: antioksidant, antibakterial va yallig‘lanishga qarshi xususiyatlari tufayli dorivor vositalar tarkibiga kiritilishi mumkin;
- Kosmetikada: tabiiy rang beruvchi va terini parvarishlovchi modda sifatida ishlatiladi;
- Ekologiyada: sintetik bo‘yoqlarga qaraganda kamroq chiqindi hosil qiladi va suv resurslarini ifloslantirmaydi.

Tibbiyotda indigoferadan ajratilgan komponentlar o‘pka kasalliklari, teri yallig‘lanishlari va ayrim infeksiyalarga qarshi dori vositalarida qo‘llanishi mumkin. Ekologik nuqtai nazardan esa, tabiiy bo‘yoqlarning ishlab chiqarilishi atrof-muhitga zararli kimyoviy chiqindilarni kamaytirib, “yashil texnologiyalar” konsepsiyasiga mos

keladi. Shuningdek, indigoferaning barqaror ekotizimlarda yetishtirilishi qishloq xo‘jaligi uchun iqtisodiy foyda keltiradi.¹

Xulosa qilib aytganda, indigofera tinctoria o‘simligi nafaqat biomorfologik jihatdan qimmatli, balki undan olinadigan tabiiy bo‘yoqlar biotexnologiya, tibbiyot va ekologiyada ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiy pigmentlarning keng ko‘lamda qo‘llanilishi sintetik bo‘yoqlarga nisbatan xavfsizroq va barqaror ishlab chiqarishni ta’minlaydi.

Shu bois kelajakda bo‘yoqdor indigoferaning agrobiotexnologik ekin sifatida rivojlantirilishi va uning dorivor xususiyatlarini chuqur o‘rganish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ali, S., Hussain, T., & Nawaz, R. (2010). Indigo dye: Natural colorant for denim dyeing. *Journal of Cleaner Production*, 18(16-17), 1635–1641.
2. Singh, R., & Singh, D. (2017). Medicinal properties of *Indigofera tinctoria*: A review. *International Journal of Herbal Medicine*, 5(2), 100–104.
3. Ward B.J., Landry N., Trépanier S. et al. Plant-based virus-like particle vaccine for COVID-19. *The Lancet*, 2021, 398(10310): 2080–2092.
4. Жолобова Е.С., Кулагина Е.В. Биотехнологические методы создания вакцин: современное состояние и перспективы. – Москва: Наука, 2021.

¹ Жолобова Е.С., Кулагина Е.В. Биотехнологические методы создания вакцин: современное состояние и перспективы. – Москва: Наука, 2021.

Constitutional and legal foundations of the parliamentary election in the Republic of Uzbekistan

Suyunov Mexriddin Urol o'g'li

4th year student of the Faculty of Social Sciences, Political Science,
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Abstract: This article analyzes the constitutional and legal foundations of the institution of a parliamentary referendum in the Republic of Uzbekistan, its content, significance and practical application. It also sheds light on existing problems and ways to overcome them on a scientific basis.

Keywords: parliamentary inquiry, parliamentary oversight, Constitution, Oliy Majlis, legal framework, public administration, democratic institutions.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida deputatlik so'rovi institutining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari, uning mazmuni, ahamiyati va amaliy qo'llanilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ilmiy asosda yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: deputatlik so'rovi, parlament nazorati, Konstitutsiya, Oliy Majlis, huquqiy asoslar, davlat boshqaruvi, demokratik institutlar.

Kirish: Deputatlik so'rovi parlament nazoratining muhim shakli bo'lib, u orqali davlat organlari faoliyati ustidan demokratik nazorat amalga oshiriladi. Mazkur institutning rivojlanishi huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati shakllanishida muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlat qurish jarayonida parlament nazorati muhim o'rin tutadi. Deputatlik so'rovi ushbu nazoratning asosiy vositalaridan biri bo'lib, u orqali deputatlar davlat organlari faoliyati ustidan samarali nazorat olib boradi¹.

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023.

Deputatlik so‘rovi — bu deputatning davlat organlari yoki mansabdor shaxslarga yuboradigan rasmiy talabidir. Ushbu institut parlament nazoratining muhim shakli hisoblanadi².

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 83-moddasiga muvofiq, deputatlar davlat organlariga so‘rov yuborish huquqiga ega va ularga belgilangan muddatda javob berilishi shart³.

“Oliy Majlis Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi Qonunning tegishli moddalarida deputatlik so‘rovi tartibi belgilangan⁴.

Shuningdek, “Oliy Majlis Senati to‘g‘risida”gi Qonunda ham senatorlarning ushbu huquqi mustahkamlangan.⁵

Deputatlik so‘rovi instituti mamlakatimizda o‘ziga xos murakkab va tizimli huquqiy bazaga ega bo‘lib, uning asosi sifatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi namoyon bo‘ladi. Konstitutsiyadan tashqari, ushbu munosabatlar "Parlament nazorati to‘g‘risida"gi, "O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a‘zosining maqomi to‘g‘risida"gi qonunlar hamda palatalarning ichki Reglamentlari bilan tartibga solinadi.⁶

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar majmuasi deputatlik so‘rovining yuridik maqomini, uni yuborish tartibini, muddatlarini va eng muhimi, uning ijrosi uchun mansabdor shaxslarning javobgarligini belgilab beradi. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi mamlakatimizda parlamentarizm an‘analarini yangi pog‘onaga olib chiqdi. Konstitutsiyaviy islohotlar natijasida

² Parlament nazorati to‘g‘risida ilmiy maqolalar to‘plami.

³ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 83-modda.

⁴ “Oliy Majlis Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi Qonunning tegishli moddalarida deputatlik so‘rovi tartibi belgilangan

⁵ “Oliy Majlis Senati to‘g‘risida”gi Qonun.

⁶ "Parlament nazorati to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 12.04.2016-y., 02/16/403/0322-son.

parlamentning vakolatlari kengaytirilib, uning ijro hokimiyati faoliyatiga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Konstitutsiyaning yangi normalari deputatlik so'rovini shunchaki qonuniy vakolat darajasidan, oliy yuridik kuchga ega bo'lgan fundamental konstitutsiyaviy huquq darajasiga ko'tardi. Bu esa o'z navbatida, parlament a'zolariga davlat boshqaruvida faol ishtirok etish, ijro hokimiyati organlarining qonunlarga rioya etishini va davlat dasturlarining o'z vaqtida, sifatli bajarilishini ta'minlashda mislsiz qudratli vositani taqdim etdi. Shuni ta'kidlash lozimki, deputatlik so'rovi instituti orqali jamiyatda "Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan demokratik tamoyil amalda o'z aksini topmoqda. Deputat yoki Senat a'zosi o'z saylovchilari nomidan davlat organi rahbariga murojaat qilar ekan, u jarayonda shaxsiy manfaatlarni emas, balki jamiyatning, hududning yoki muayyan ijtimoiy qatlamning hayotiy ehtiyojlarini himoya qiladi. Shu nuqtai nazardan, deputatlik so'rovining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini chuqur o'rganish, uning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish hamda istiqboldagi takomillashtirish yo'nalishlarini belgilash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yilgi tahrirdagi Konstitutsiyasi parlamentarizmni rivojlantirishning mutlaqo yangi huquqiy asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan, Bosh qomusimizning 98-moddasi deputatlik so'rovi institutining mazmun-mohiyatini tubdan o'zgartirdi. Ushbu moddaga ko'ra, Qonunchilik palatasi deputati va Senat a'zosi davlat organlarining, xo'jalik boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslariga qonunlarning ijrosi, turli sohalardagi davlat dasturlarini amalga oshirish masalalari hamda boshqa muhim masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki o'z nuqtai nazarini bayon etish talabi bilan so'rov yuborishga haqlidir⁷.

⁷ Saidov A.X. Parlament huquqi: Darslik. – Toshkent: Adolat, 2021. – B. 142.

Shuni ta'kidlash lozimki, har qanday deputatlik so'rovi muayyan rekvizitlarga va huquqiy talablarga javob berishi shart. Qonunchilikka ko'ra, so'rov yozma shaklda bo'lishi, unda ko'tarilayotgan masalaning mohiyati asoslab berilishi va u deputat (yoki Senat a'zosi) tomonidan shaxsan imzolanishi lozim. So'rov yuborishda deputat "Davlat sirlari to'g'risida"gi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi, shuningdek, odil sudlovni amalga oshirish jarayoniga aralashmasligi qat'iy belgilab qo'yilgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasida deputatlik so'rovi instituti parlament nazoratining muhim va ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari mamlakatning asosiy qonuni hamda tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan bo'lib, deputatlarga davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan samarali nazoratni amalga oshirish imkonini beradi. Mazkur institut orqali davlat organlarining hisobdorligi oshadi, ularning faoliyatida ochiqlik va shaffoflik ta'minlanadi hamda fuqarolarning qonuniy manfaatlarini himoya qilinadi.

Shu bilan birga, deputatlik so'rovi amaliyotida ayrim muammolar, xususan, so'rovlarga o'z vaqtida va to'liq javob berilmasligi, ayrim hollarda javoblarning yuzaki xarakterga ega bo'lishi kabi kamchiliklar mavjud. Bu esa mazkur institut samaradorligini to'liq namoyon etishga to'sqinlik qilmoqda. Shuning uchun deputatlik so'rovi mexanizmini takomillashtirish, javobgarlik choralari kuchaytirish, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish orqali parlament nazoratini yanada samarali tashkil etish zarur.

Umuman olganda, deputatlik so'rovi institutini rivojlantirish va uning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash O'zbekistonda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023.
2. Parlament nazorati to‘g‘risida ilmiy maqolalar to‘plami.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 83-modda.
4. “Oliy Majlis Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi Qonunning tegishli moddalarida deputatlik so‘rovi tartibi belgilangan
5. “Oliy Majlis Senati to‘g‘risida”gi Qonun.
6. "Parlament nazorati to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 12.04.2016-y., 02/16/403/0322-son.
7. Saidov A.X. Parlament huquqi: Darslik. – Toshkent: Adolat, 2021. – B. 142.

**Preliminary Observation Results of the Greenbug (*Schizaphis graminum*
Rond.) in Wheat Crops in Furqat District
(On the Example of Oybek Temirov)**

Yusupova Muxlisa Olimjon qizi

Student of Biology, Kokand State University

yusupovamuhlisa890@gmail.com

Abstract

This article presents the results of a preliminary study on the distribution, population dynamics, and damage severity of the wheat aphid (*Schizaphis graminum* Rond.) in wheat fields of the “Oybek Temirov” farm in Furqat district. Visual observations and counts were carried out for (March 30 – April 26) on 49 hectares of wheat (variety “Yasavul”) [1, 4]. The average aphid density ranged from 5 to 10 individuals per stem, reaching up to 18 individuals in some areas. The damage severity was assessed as weak (2 points). Affected plants showed 10-20% leaf yellowing in the form of small yellow spots [2, 5]. Recommendations for aphid control are also provided.

Keywords: wheat aphid, *Schizaphis graminum*, wheat, “Yasavul” variety, Furqat district, pest, weak damage severity

Annotatsiya. Ushbu maqolada Furqat tumanidagi “Oybek Temirov” fermer xo‘jaligining bug‘doy maydonlarida katta g‘alla shirasi (*Schizaphis graminum* Rond.)ning tarqalishi, rivojlanish dinamikasi va zarar yetkazish darajasi o‘rganildi. 30-martdan 26-aprelgacha 49 gektar bug‘doy maydonida (nav “Yasavul”) vizual kuzatuvlar va hisob-kitoblar olib borildi [1, 4]. Natijalarga ko‘ra, shiraning o‘rtacha zichligi 1 tupda 5-10 tadan, ayrim joylarda 18 tagacha yetgan. Zararlanish darajasi kuchsiz (2 ball) deb baholandi. Zararlangan o‘simliklarda barglarning 10-20% qismida mayda sariq dog‘lar va engil sarg‘ayish kuzatildi [2, 5]. Maqolada shira bilan kurashish bo‘yicha tavsiyalar ham berilgan.

Kalit soʻzlar: katta gʻalla shirasi, *Schizaphis graminum*, bugʻdoy, “Yasavul” navi, Furqat tumani, zararkunanda, kuchsiz zararlanish.

Аннотация. В данной статье изучены распространение, динамика развития и степень вредоносности большой злаковой тли (*Schizaphis graminum* Rond.) на посевах пшеницы в фермерском хозяйстве «Ойбек Темиров» Фуркатского района. В течение (30 марта – 26 апреля) проведены визуальные наблюдения и учеты на 49 гектарах пшеницы сорта «Ясавул» [1, 4]. По результатам, средняя плотность тли составила 5–10 особей на стебель, местами до 18 особей. Степень повреждения оценена как слабая (2 балла). На пораженных растениях отмечено пожелтение 10-20% листьев в виде мелких желтых пятен [2, 5]. В статье также даны рекомендации по борьбе с тлей.

Ключевые слова: большая злаковая тля, *Schizaphis graminum*, пшеница, сорт «Ясавул», Фуркатский район, вредитель, слабая степень повреждения.

Kirish. Bugʻdoy Oʻzbekiston Respublikasining asosiy strategik oziq-ovqat ekinlaridan biri hisoblanadi. Fargʻona viloyatining Furqat tumanida ham bugʻdoy yetishtirish keng yoʻlga qoʻyilgan. Biroq, bugʻdoy plantatsiyalariga jiddiy zarar yetkazuvchi zararkunandalar qatorida katta gʻalla shirasi (*Schizaphis graminum* Rond.) muhim oʻrin tutadi [1, 3]. Ushbu tur nafaqat shira, balki virusli kasalliklar (masalan, sariq maysa virusi) tarqatuvchisi sifatida ham xavfli hisoblanadi [2].

Furqat tumanida ushbu zararkunandaning biologiyasi va ekologiyasi yetarlicha oʻrganilmagan [6]. Ayniqsa, hududda ekiladigan bugʻdoy navlarining shiraga chidamliligi boʻyicha maʼlumotlar kam [7]. Shu sababli, “Oybek Temirov” fermer xoʻjaligi bazasida 30-martdan 26-aprelgacha (4 hafta) boʻlgan amaliyot davomida kuzatuvlar olib borildi. Maqolaning maqsadi – “Yasavul” navli bugʻdoyda katta gʻalla shirasining dastlabki tarqalish darajasi va rivojlanish dinamikasini aniqlash hamda unga qarshi kurash boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Tadqiqot obyekti va metodikasi: Kuzatuvlar Farg‘ona viloyati Furqat tumanidagi “Oybek Temirov” fermer xo‘jaligining 49 gektar bug‘doy maydonida olib borildi. Tadqiqot 2025-yil 30-martdan 26-aprelgacha (jami 4 hafta) davom etdi. Bug‘doy navi “Yasavul” – mahalliy seleksiyali qattiq bug‘doy navi, o‘rtacha pishar, qurg‘oqchilikka chidamli [7]. Har haftada 10 ta nuqtada (har bir nuqtada 10 tup o‘simlik) vizual hisob-kitob usuli bilan shiralar soni aniqlandi [4]. Hisob-kitoblar erta tongda (soat 8:00-9:00) o‘tkazildi.

Zararlanish darajasini baholash: 5 ballik shkala bo‘yicha [5]:

- 0 ball – zarar yo‘q
- 1 ball – juda kuchsiz (barglarning 10% gacha zararlangan)
- **2 ball – kuchsiz (10-25%)**
- 3 ball – o‘rtacha (25-50%)
- 4 ball – kuchli (50-75%)
- 5 ball – juda kuchli (75-100%)

Havo harorati va nisbiy namlik ma‘lumotlari mahalliy meteorologiya stansiyasidan olindi. Fermer xo‘jaligi ma‘lumotlariga ko‘ra, 49 gektar bug‘doy bilan bir qatorda 49,5 gektar paxta ham ekilgan.

Tadqiqot natijalari. To‘rt hafta davomida olib borilgan hisob-kitoblar shuni ko‘rsatdiki, katta g‘alla shirasi barcha kuzatuv nuqtalarida uchraydi. Eng yuqori zichlik kuzatuvning so‘nggi haftasida (20-26 aprel) qayd etildi – o‘rtacha 1 tupga 10,2 ta shira. Eng past zichlik esa 1-haftada (30 mart – 5 aprel) – o‘rtacha 1 tupga 3,8 ta shira. Kuzatuv davrida havo haroratining asta-sekin ko‘tarilishi (15°C dan 24°C gacha) bilan birga shira soni ham o‘sib bordi [2, 3].

1-jadval. Katta g‘alla shirasining haftalik o‘rtacha zichligi (1 tupdagi shira soni)

Hafta	Sana oralig‘i	O‘rtacha zichlik	Maksimal zichlik
-------	---------------	------------------	------------------

1	30 mart – 5 aprel	3,8	7
2	6-12 aprel	6,2	12
3	13-19 aprel	8,7	16
4	20-26 aprel	10,2	18

Kuzatuvlar davomida “Yasavul” navli bug‘doyda katta g‘alla shirasi yetkazgan zarar **kuchsiz (2 ball)** deb baholandi [5]. Zararlanish asosan barglarning pastki qismlarida kuzatildi. Kuzatuv oxiriga kelib zararlangan barglarning 10-20% qismida mayda sariq dog‘lar va engil sarg‘ayish qayd etildi. O‘simliklarning o‘shida sezilarli orqada qolish kuzatilmadi.

2-jadval. Haftalar bo‘yicha zararlanish darajasi (ball)

Hafta	Sana oralig‘i	Zararlanish darajasi (ball)	Izoh
1	30 mart – 5 aprel	1 (juda kuchsiz)	Barglarning 5-8% da mayda sariq dog‘lar
2	6-12 aprel	1-2 (juda kuchsizdan kuchsizga)	Barglarning 8-12% da sarg‘ayish
3	13-19 aprel	2 (kuchsiz)	Barglarning 12-15% da sarg‘ayish
4	20-26 aprel	2 (kuchsiz)	Barglarning 15-18% da sarg‘ayish

Zararlangan o‘simliklar asosan maydonning chekka qatorlarida (ayniqsa, paxta maydoniga yaqin joylarda) ko‘proq edi [1]. Maydonning shimoliy chekkasida (yo‘l bo‘yida) shira zichligi o‘rtacha 12-15 tagacha yetgan bo‘lsa-da, zararlanish darajasi 2 ball (kuchsiz) dan oshmadi. Maydonning markaziy qismlarida zararlanish darajasi 1-1,5 ball (juda kuchsiz) atrofida bo‘lgan. Kuzatuvlar davomida “Yasavul” navi shira

zararlanishiga nisbatan **yuqori chidamlilik** ko'rsatdi [7]. Qo'shni maydonlardagi boshqa navlarga (masalan, "Krasnodar" navi) qiyoslaganda, "Yasavul"da zararlanish intensivligi taxminan 20-25% past bo'lgan. Zararlanishning kuchsiz (2 ball) darajada bo'lishi aynan shu navning chidamlilik xususiyati bilan bog'liq. Kuzatuv davrida o'rtacha harorat 14,8°C dan 24,1°C gacha, nisbiy namlik esa 48-65% oralig'ida bo'lgan. Shiraning ko'payishi 18°C dan yuqori haroratlarda faollashgan [2, 3]. Eng yuqori zichlik 22-24°C harorat va 50-55% namlikda (4-hafta) kuzatilgan, biroq bu zichlik ham zararlanishni kuchsiz (2 ball) darajadan oshira olmagan.

3-jadval. Haftalik o'rtacha harorat va namlik

Hafta	Sana oralig'i	O'rtacha harorat (°C)	O'rtacha namlik (%)
1	30 mart – 5 aprel	14,8	62
2	6-12 aprel	17,5	58
3	13-19 aprel	20,3	53
4	20-26 aprel	23,2	51

